

MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

VATANPARVAR

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



Oqil Gulyamov suratga olgan

2026-yil

MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY,
HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

GAZETA 1992-YILNING
4-IYUNIDAN CHIQA BOSHLAGAN
WWW.MV-VATANPARVAR.UZ

2026-YIL 3-YANVAR
№1 (3167)



O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI

Qadrli vatandoshlarim!

Siz, azizlarni, ko'p millatli butun xalqimizni kirib kelayotgan yangi 2026-yil bilan chin yurakdan muborakbod etaman.

O'tib borayotgan yil xalqimiz hayotida katta o'zgarishlar, ertangi kunga mustahkam ishonch va ulkan natijalar yili bo'ldi.

Dunyodagi murakkab vaziyatga qaramasdan, biz o'z oldimizga qo'ygan barcha maqsad va marralarga erishdik. O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti hajmi ilk bor 145 milliard dollardan oshdi va mamlakatimiz o'rta daromadli davlatlar qatoridagi o'rnini mustahkamladi.

Iqtisodiy o'sish samarasi odamlarimiz hayotida, oilalar daromadida, mahallalar qiyofasida, yoshlarimizning kelajakka bo'lgan ishonchida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'tayotgan yilda har bir oila, har bir xonadonda xursandchiliklar, baxtli onlar ko'p bo'ldi.

Yangi uyga ko'chib kirgan, o'z biznesini yo'lga qo'ygan yoki kengaytirgan, daromadi oshgan, ilm-fan, sport, madaniyat va boshqa sohalarida o'zi yoki farzandlarining yutuqlaridan quvongan millionlab oilalarning shodligi 2026-yildagi maqsadlarimizga

erishish yo'lida bizga albatta katta kuch beradi.

Aziz yurtdoshlarim!

Biz kelgusi yilda ham har bir oilaning baxtli, farovon va sog'lom hayot kechirishi, yoshlarimizning sifatli ta'lim olishlari, kelajak kasblarini egallashlari va sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun yangi-yangi imkoniyatlarni ishga solamiz!

Biz 2026-yilni **"Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"** deb e'lon qildik.

Yangi yilda minglab mahallalar infratuzilmasini yaxshilab, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kiramiz.

Barcha iqtisodiyot tarmoqlarini texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazamiz. Xalqimizning daromadi va xarid qobiliyatini oshirish ishlarini yanada jadallashtiramiz.

Aholining yordamga muhtoj qatlamlari, muhtaram keksalarimiz, qadrli xotin-qizlar va navqiron yoshlarimizni qo'llab-quvvatlashni kengaytiramiz.

Ekologiyani yaxshilash, "yashil" energetikani rivojlantirish va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha ta'sirchan choralarni davom ettiramiz.

Bir so'z bilan aytganda, yangi 2026-yilda ham barcha islohotlarimiz, sa'y-harakatlarimiz odamlarimiz yaxshi yashashi va biznes uchun eng qulay sharoitlarni yaratishga qaratiladi.

Tajribali mahalla raislari va faollari, ziyolilar, tadbirkorlarimiz, serg'ayrat yoshlarimiz, keng jamoatchiligimiz, har bir vatandoshimiz ushbu oliyanob ishlarga munosib hissa qo'shadi deb ishonaman!

Aziz vatandoshlarim!

Yangi yil arafasida har bir oila yaxshi niyatlar qiladi, har bir inson qalbida yorqin orzu-umidlar jo'sh uradi.

Har birimizning pok niyatlarimiz, ezgu maqsadlarimiz 2026-yilda albatta amalga oshsin!

Yangi yil har bir oilaga sihat-salomatlik, baxt-saodat, qut-baraka, yurtimizga yuksak taraqqiyot, tinchlik-xotirjamlik olib kelsin!

Yaratgan Parvardigor Vatanimizni asrasin, xalqimiz hayotini yanada yaxshilash yo'lidagi ishlarimizda madadkor bo'lsin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin, azizlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
O'zA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OLIY MAJLIS VA O'ZBEKISTON XALQIGA MUROJAATNOMASI

Assalomu alaykum, aziz yurtdoshlar!

Hurmatli deputat va senatorlar!

Muhtaram mehmonlar!

Bugun Oliy Majlisga va ko'p millatli xalqimizga kelgusi yil uchun Murojaatnomani taqdim etar ekanman, avvalo, barchangizni sog'-salomat, ko'tarinki kayfiyatda ko'rib turganimdan xursandman.

So'nggi to'qqiz yilda biz sizlar bilan, el-yurtimiz bilan birgalikda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdik. Iqtisodiyotimiz yangidan shakllandi, bozor munosabatlarini, ijtimoiy himoyani kengaytirdik, qonun ustuvorligini mustahkamladik. Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o'rgandik. Buning tasdig'ini tobora yangicha qiyofa kasb etib borayotgan shahar va qishloqlarimizda, zamonaviy korxonalar, savdo-servis maskanlari, maktab, bog'cha va shifoxonalar, obod ko'cha va mahallalar, transport-logistika tizimi, raqamli xizmatlar misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Qadrli vatandoshlar!

Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan va yaqin-yaqingacha hech kim tasavvur qila olmagan o'zgarishlar, davlatlar o'rtasida iqtisodiy qarama-qarshilik, xavfsizlikka tahdidlar ortib borayotgan tahlikali bir vaziyatda sizlar bilan o'ta murakkab yilni yakunlayapmiz.

Qanchalik og'ir bo'lmasin, boshlagan demokratik islohotlarimizni qat'iy davom ettirganimiz; xalqimizning qo'llab-quvvatlashi

va yoshlarimizning g'ayrat-shijoati; hamjihatlik asosi bo'lgan mahallaning hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirganimiz; odamlarimizning ongi va dunyoqarashini o'zgartirib, el-yurtimizni yanada jipslashtirganimiz; tadbirkor, dehqon va fermerlarimizning tashabbuskorligi va mardona mehnati; o'zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan do'stona tashqi siyosatimiz hisobiga 2025-yilda barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishdik.

Avvalo, jahon miqyosida ishlab chiqarish va transport-logistika zanjirlari uzilgan, xomashyo va moliyaviy resurslar narxi oshgan sharoitda ham mamlakatimiz iqtisodiyoti ishonchli va barqaror o'sishda davom etayotganini qayd etish lozim.

Bu natijalar dunyo hamjamiyati va nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

E'tibor bering, bundan to'qqiz yil oldin iqtisodiyotimiz hajmini 100 milliard dollarga yetkazish biz uchun juda katta marra bo'lib ko'rinardi. Bu yil tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollardan oshdi. Bunday yuksak natijalar xalqimizning, barchamizning qanday ulkan ishlarga qodir ekanimizni yaqqol namoyon etmoqda.

Global savdo tizimida "o'yin qoidalari" o'zgarayotgan bir paytda biz bu yil eksportimizni 23 foizga oshirib, 33,4 milliard dollarga yetkazamiz. Eng muhimi, islohotlarimiz uchun mustahkam moliyaviy baza bo'ladigan oltin-valyuta zaxiralarimiz ilk bor 60 milliard dollardan oshdi.

Bu yil iqtisodiyotimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar

hajmi 43,1 milliard dollarga yetdi. Jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etmoqda. Bu esa iqtisodiyotimiz kelgusi yillarda ham yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sib borishi uchun zamin bo'ladi.

O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzi, xalqaro reytinglardagi o'rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Xususan, yetakchi xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren reytingini "BB-"dan "BB" pog'onasiga ko'tardi.

Bu gaplar ko'pchilikka oddiy bir fakt bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin iqtisodchilar, investor va bankirlar gap naqadar katta natijalar haqida borayotganini juda yaxshi tushunib turibdi. Birgina ana shu o'zgarish tufayli chetdan jalb qilinadigan resurslarning foiz stavkasi 1-1,5 punktga pasayib, tashqi qarz xarajati yiliga kamida 300 million dollarga kamayadi.

Shuningdek, Jahon banki e'lon qilib boradigan Davlatlarning texnologik yetuklik indeksida O'zbekiston 71 pog'ona yuqori ko'tarilib, dunyoning top-10 ta mamlakati qatoridan joy oldi.

Aholi farovonligi va biznesni o'stirishga xizmat qiladigan infratuzilmani yanada yaxshilash bo'yicha ham 2025-yil katta o'zgarishlar yili bo'ldi. Xususan, energetika sohasida tub burilish yasaganimiz hisobiga elektr ishlab chiqarish hajmini 85 milliard kilovatt-soatga yetkazdik.

Tasavvur qiling, 2017-yildagi 60 milliard kilovatt-soat generatsiya darajasida qolib ketganimizda, hozir iqtisodiyotimiz hajmini 2 karra oshira olarmidik? Ishlab chiqarishning o'sib

borayotgan talabini, 38 million aholi ehtiyojini qoplab bo'larmidi?

Bu yil 188 ta mahalladagi 715 ming aholi yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suvi kirib bordi, yana 2 million 300 mingga yaqin aholining suv ta'minoti yaxshilandi. Yoki 867 ta "og'ir" mahalladagi 470 mingta xonadonga tomorqalarni sug'orish uchun ilk bor suv yetib bordi.

Joriy yilda aholiga 8 million 100 ming kvadrat metrli, 135 ming xonadondan iborat ko'p qavatli uylar topshirilmoqda, odamlarning o'zi ham yashash sharoitini yaxshilash uchun 19 million kvadrat metr maydonda qurilish qildi. Biznes vakillari tomonidan 24 million kvadrat metr noturarjoy obyektlari barpo etildi.

Umuman, so'nggi to'qqiz yilda 210 million kvadrat metrli turarjoy va noturarjoy obyektlari foydalanishga topshirildi.

Bu raqamlarga urg'u berib aytayotganim albatta bejiz emas. Agar yo'l, suv, elektr va boshqa infratuzilmalar uchun zarur mablag'ni topib bermaganimizda, quruvchilar va qurilish materiallari korxonalari uchun sharoit yaratib bermaganimizda, ipoteka tizimini yo'lga qo'ymaganimizda, shuncha bunyodkorlik ishlari bo'larmidi?

Joriy yilda 5 million aholimiz daromadli bo'lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag'allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla "kambag'allikdan xoli" hududga aylandi.

Kambag'al oilalarga mansub 168 ming nafar bola davlat bog'chalariga imtiyozli asosda qabul

qilindi. Bu yildan boshlab, 208 ta bog'chada birinchi marta inklyuziv ta'lim tizimini joriy etdik.

Ta'kidlash kerakki, yurtimizda kambag'allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi.

Bir eslang, bu ishlarni boshlaganimizda aholimizning uchdan bir qismi kambag'allik chegarasida yashardi. Kredit, subsidiya, kompensatsiya kabi 100 dan ziyod xizmat orqali ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi tizimini yo'lga qo'yganimiz va bularni mahalladagi "yettilik"ning o'ziga berganimiz natijasida 8,5 milliondan ziyod odam kambag'allikdan chiqdi, ishsizlik 2 karra qisqardi. Natijada uch yil oldin kambag'allikni 2026-yil yakuni bilan 2 karra qisqartirish bo'yicha olgan marramizni shu yilning o'zida uddaladik.

Eng muhim yutuqlarimiz haqida so'z yuritganda, azm-u shijoatli sportchilarimizning nufuzli xalqaro musobaqalarda erishgan g'alabalarini mamnuniyat bilan ta'kidlash o'rinlidir.

Avvalo, O'zbekiston futboli uchun 2025-yil chinakam tarixiy yil bo'ldi. Milliy terma jamoamiz ilk bor jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Mohir shaxmatchilarimiz jahon kubogi musobaqalarida munosib ishtirok etdi. Ayniqsa, navqiron grossmeysterimiz Javohir Sindorov eng yosh jahon kubogi sohibi bo'lgani barchamizga yuksak g'urur bag'ishlaydi.

Eng muhimi, shaxmat olamidagi yutuqlarimiz shu bilan to'xtab qolgani yo'q. O'tgan haftada 9–17 yoshli shaxmatchilar o'rtasida "rapid" va "blis" yo'nalishlari bo'yicha jahon chempionatida yurtimiz vakillari 5 ta oltin, 2 ta kumush va 5 ta bronza medalni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi.

Bu yilgi Yoshlar Paraosiyo o'yinlarida jasorat va matonat sohibi bo'lgan sportchilarimiz 125 ta oltin, 77 ta kumush va 52 ta bronza medalni qo'lga kiritib, ishtirokchi davlatlar orasida eng yuqori natijani qayd etdi.

Hech shubhasiz, iste'dodli o'g'il-qizlarimiz ta'lim, ilm-fan, madaniyat, san'at, sport va boshqa sohalarida erishayotgan katta yutuqlari bilan ham Yangi O'zbekistonimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shmoqda.

O'quvchi va talabalarimiz joriy yilda xalqaro fan olimpiadalarida 51 ta oltin, 101 ta kumush, 126 ta bronza medalni qo'lga kiritib, o'z bilim va salohiyatini butun dunyoga namoyish qildi.

El-yurtimizning faxri bo'lgan bunday farzandlarimizga, ularning ota-onalari va ustoz-murabbiylariga yana bir bor chin dildan tahsin aytamiz.

Ma'lumki, O'zbekiston kelgusi yili 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga, 2027-yilda 20 yoshgacha bo'lgan futbolchilar o'rtasidagi jahon chempionatiga, 2029-yilda esa Yoshlar Osiyo o'yinlariga mezbonlik qiladi.

Shu bilan birga, 2026-yilda yurtimizda ilk bor maktab o'quvchilari o'rtasida nufuzli xalqaro kimyo va informatika olimpiadalar, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar talabalari o'rtasida muhandislik yo'nalishlarida, Turkiy davlatlar texnikumlari o'quvchilari o'rtasida kasb yo'nalishlarida xalqaro olimpiadalar o'tkaziladi. Ushbu musobaqalarda ham farzandlarimiz munosib ishtirok etadi, deb ishonaman.

Bunday nufuzli tadbirlar Vatanimizni rivojlangan sport va ilm-

fan mamlakatiga aylantirish, uning obro'-e'tiborini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Keyingi paytda yurtimiz global masalalar muhokama qilinadigan xalqaro muloqot maydoniga aylanib bormoqda. Xususan, bu yil Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi; YUNESKO Bosh konferensiyasining sessiyasi; "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" sammiti va xalqaro Iqlim forumiga mezbonlik qildik.

Shuningdek, O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston yetakchilarining mart oyida Xo'jandda bo'lib o'tgan uchrashuvida birinchi marta uch mamlakat davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi tarixiy shartnoma imzolandi hamda "Abadiy do'stlik to'g'risida"gi deklaratsiya qabul qilindi.

Mintaqamiz davlat rahbarlarining yaqinda Toshkentdagi Maslahat uchrashuvi chog'ida biz integratsiya jarayonlarini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun Markaziy Osiyo hamjamiyati strategik formatini tashkil qilish g'oyasini ilgari surdik. Ozarbayjonni Markaziy Osiyo hamjamiyati formatiga to'la huquqli a'zo sifatida qabul qilish to'g'risidagi qaror tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu qadam Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o'rtasida strategik bog'liqlik va barqarorlikni kuchaytirishi shubhasiz.

Shu bilan birga, oktabr oyida Bryusselda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi. Noyabr oyida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo va AQSh sammiti ko'p tomonlama va uzoq muddatli sheriklikni sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi.

O'tgan haftada Tokioda Markaziy Osiyo va Yaponiya yetakchilarining uchrashuvida ta'lim, tibbiyot, raqamli texnologiyalar, infratuzilma va sanoat sohalari bo'yicha muhim kelishuvlarga erishdik. Shu haftaning boshida esa Sankt-Peterburgda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi rahbarlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuv ham hamkorligimizning dolzarb yo'nalishlarini belgilab berdi.

Bularning barchasi xalqaro aloqalarimizni mazmun jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Biz dunyodagi uzoq-yaqin mamlakatlar bilan – Sharq va G'arb, Shimol va Janub bilan hamkorlik ko'priklarini qurishda davom etamiz.

Muhtaram yig'ilish ishtirokchilari!

Bundan ikki yil oldin "O'zbekiston – 2030" strategiyasini qabul qilganimizda yalpi ichki mahsulot hajmini 2030-yilgacha 160 milliard dollarga yetkazishni belgilab olgan edik. Ko'rib turibsizlar, mavjud salohiyatimiz, bugungi islohotlarimiz, tadbirkorlarimizning faolligi, xorijiy sheriklarimiz bilan hamkorligimiz o'sib borayotgani hisobiga bu marraga 2026-yilning o'zida bemaolol erisha olamiz.

Hozirgi global iqtisodiyotda raqobatga chidamli bo'lish uchun malakali kasb egalari va mutaxassislar, zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutmaslik lozim. Agar biz sanoatda – elektronika va elektrotexnika, biokimyo va polimerlar, farmatsevtika,

mashinasozlik kabi yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan sohalarni rivojlantirish; xizmatlarda – IT, sun'iy intellekt, moliyaviy texnologiyalar, konsalting, transport-logistika kabi katta daromad keltiradigan servislarni ko'paytirish; qishloq xo'jaligida – unumdorlikni oshirish uchun bioinjeneriyadan keng foydalanish, ilg'or agrotexnika va suv tejaydigan usullarni faol qo'llash; iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun "yashil" energetika, chiqindisiz ishlab chiqarishga o'tish; ta'lim va tibbiyotda – sifatni yangi bosqichga olib chiqadigan ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etish uchun yangi texnologiyalarni olib kirsak, kadrlarni ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy kasblarga tayyorlasak, kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz hajmini 240 milliard dollardan oshirishga barcha imkoniyatlarimiz bor.

Bu raqamlar aniq va puxta hisob-kitoblarga asoslangan prognoz. Xalqaro valyuta jamg'armasi va nufuzli ekspertlarning xulosalari ham buni tasdiqlamoqda.

Hurmatli yurtdoshlar!

Biz – bugun 38 milliondan ziyod katta xalqmiz. Mashaqqatli va sharaflı mehnatimiz bilan dunyoda hurmat topayotgan, ertangi kunga ishonch bilan dadil borayotgan, matonatli va g'ururi baland millatimiz.

Biz o'zgarishlarni kutib yashamaymiz, aksincha, ularni o'zimiz, o'z aql-zakovatimiz va mas'uliyatli mehnatimiz bilan yaratamiz.

Har yili aholimiz o'rtacha 2 foizga o'smoqda, 1 milliondan ziyod o'g'il-qizimiz katta hayotga kirib kelmoqda. Yoshlarimizga qarab, ular erishayotgan yutuqlarni ko'rib, ko'ksimiz tog'dek ko'tariladi, qanday ulkan bunyodkor kuch safimizga qo'shilayotganidan g'ururlanib ketamiz.

Albatta, bugungi murakkab zamonda yoshlarimizni turli sinovlarga chidamli, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash, xalqimizni yanada birlashtirish va jipslashtirishda, hech shubhasiz, o'zini o'zi boshqarishning noyob tizimi bo'lgan mahallaning o'rni va ahamiyati katta.

Mahalla va yaxshi qo'shnichilik o'zaro uyg'un qadriyatlardir. Ular jamiyatda insoniy va ijtimoiy kapitalni yanada boyitishga beqiyos hissa qo'shadi. Mamlakatimizda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlarda ishtirok etganlarning 90 foizdan ko'prog'i o'zini mahalla jamoasining bir qismi deb hisoblashi ham shundan dalolat beradi.

Barchamiz uchun ham ota, ham ona bo'lgan mahallaga, shu asosda Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usining yuqoriligi ushbu institut avvalo ijtimoiy birdamlik manbai ekanini ko'rsatadi.

Albatta, biz uchun hozirgi global taraqqiyot davrida, dunyoda o'ta keskin va tahlikali jarayonlar yuz berayotgan bugungi kunda milliy birlik nihoyatda muhim va zarur.

Donishmand bobolarimizning "Birlashgan – o'zar, birlashmagan – to'zar", degan hikmatli maqoli bor.

Chindan ham, qarang, kimki birlashdi – hayotda o'zdi, g'alabaga erishdi. Kimki birlashmadi – to'zib, yo'q bo'lib ketdi.

Tarix davomida qanday og'ir sinovlarga duch kelmaylik, biz

avvalo birdamlikdan kuch oldik. Mashaqqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh bo'lib, qiyinchiliklarni yenggan. Oila – oilaga, qo'shni – qo'shniga ko'mak berib yashagan. Biz mana shunday o'ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak.

Bugungi kunda jamiyatimizda turli fikr va qarashlar bo'lishi tabiiy. Bu – demokratiyaning birlamchi talabi. Ammo millati, tili va dinidan qat'i nazar, butun el-yurtimizni birlashtiradigan ulug' bir g'oya bor. U ham bo'lsa, Vatan manfaati, xalqimiz manfaatidir.

Mana shunday buyuk maqsadga erishishda mahalla tizimining o'rni va ta'siri beqiyos. Chunki mahalla tinch va ahil bo'lsa, jamiyatimiz tinch va hamjihat bo'ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi.

Shularning barchasini hisobga olib, 2026-yilni yurtimizda "**Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili**" deb e'lon qilishni taklif etaman.

Qo'llab-quvvatlaganingiz uchun rahmat.

Yangi yilning nomida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun alohida davlat dasturini qabul qilamiz. Ushbu dasturda yurtimizdagi 9 mingdan ziyod mahallani avvalo mehr-oqibat, hamjihatlik, adolat va tarbiya maskaniga aylantirish kabi dolzarb masalalar o'z ifodasini albatta topadi. Bu haqda men keyinroq batafsil to'xtalib o'taman.

Oldimizga qo'ygan maqsadlarni faqat o'zimiz – katta hayotiy tajribaga ega mahalla raislari va faollari, hurmatli nuroniyalarimiz, opa-singillarimiz, serg'ayrat yoshlarimiz, ziyolilarimiz, ishbilarmon tadbirkorlarimiz, Vatan posbonlari, bir so'z bilan aytganda, butun xalqimiz bilan birgalikda amalga oshiramiz.

Hurmatli deputat va senatorlar!

Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda hal qiluvchi bosqichga qadam qo'ymoqdamiz. Bu yo'ldagi ishlarimiz har bir soha va tarmoqda chuqur transformatsiyani talab qiladi. Maqsadimiz aniq: yaqin yillarda daromadi jon boshiga o'rtadan yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga kirish.

Farg'ona vodiysidan Orolbo'yigacha, Zarafshon vohasidan Qashqadaryo va Surxondaryogacha, Toshkentdan tortib Jizzax va Sirdaryogacha – yurtimizning qaysi hududida yashamasin, har bir fuqaromiz islohotlar natijasini kundalik hayotida yanada ko'proq his qilishi kerak. Shuning uchun kirib kelayotgan 2026-yil davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, iqtisodiyot tarmoqlari, ta'lim, ilm-fan, tibbiyot, madaniyat, sport, ekologiya tizimini – barcha-barcha sohalarni rivojlantirishda tub burilish yili bo'ladi.

Endi Murojaatnomaning asosiy qismi – 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim 6 ta ustuvor yo'nalishdan iborat dastur haqida atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Birinchi ustuvor yo'nalish – mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirishdan iborat.

Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi. Aynan mahalladagi yo'l, suv, elektr va transport ta'minoti, bog'cha, maktab va oilaviy

poliklinikadagi shart-sharoitlarga qarab, odamlar islohotlarimizga baho beradi. Shu bois mahalla tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

Mahalla infratuzilmasini tubdan yaxshilash orqali biz mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, uning qiyofasini yanada go‘zal va obod qilish borasidagi ishlarni davom ettiramiz.

Hozirgi vaqtda qaysidir mahallada yo‘l, qaysi birida suv yoki elektr masalasi, boshqasida bog‘cha, maktab, tibbiyot, yana birida uy-joy bilan bog‘liq masalalarga alohida-alohida yechim berilmoqda. Ochiq aytish kerak, buning o‘zi bilan mahalladagi barcha masalalar to‘liq hal bo‘lib qolmaydi. Shuning uchun kelgusi yildan mahallani rivojlantirish bo‘yicha kompleks yondashuv joriy etiladi.

Har bir viloyatda 2-3 tadan tumanni tanlab, ulardagi hamma mahallada barcha muammolarni bir vaqtning o‘zida hal qiladigan tizim yaratamiz. Bu yangi tajribani Urgut tumanidan boshladik. Tumanda 100 ming aholiga mo‘ljallangan zamonaviy ekoshahar barpo etiladi. Kelgusi yil 544 milliard so‘m ajratilib, 72 ta bog‘cha, maktab, poliklinika, shuningdek ichki yo‘llar quriladi va ta‘mirlanadi, kanallar beton bilan qoplanadi, 2 ta sel-suv ombori barpo etiladi.

Tanlab olingan 33 ta tuman va 330 ta sharoiti og‘ir mahalladagi ishlar ham shunday tashkil qilinadi. Ularda bir vaqtning o‘zida tadbirkorlik infratuzilmasi ham rivojlantiriladi. Ushbu maqsadlar uchun barcha manbalar hisobidan 8,5 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi.

Deputatlarga o‘z okrugidagi muammolarni hal etish uchun 500 milliard so‘m, har bir deputatga 3,3 milliard so‘mdan beryapmiz. Bu borada “yashil hudud”, “yashil bog‘” yaratish bo‘yicha har bir deputatning tashabbusiga qo‘shimcha 330 million so‘mdan yo‘naltiramiz. Bunday yondashuv orqali 2030-yilgacha barcha tumanlardagi mahallalarga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kiramiz.

Albatta, bu ishlarni samarali tashkil qilish uchun tuman byudjeti daromadlarini kamida 2 karra ko‘paytirishga sharoit yaratib berish zarur. Shu maqsadda 2026-yil 1-yanvardan boshlab, qo‘shilgan qiymat solig‘idan tushumning Toshkent shahrida 5 foizi, qolgan hududlarda 20 foizi qoldirilib, bu mablag‘ning yarmi tumanlar byudjetiga o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, daromadlarning prognozga nisbatan oshirib bajarilgan qismining 50 foizi, ekin yerlarini ijaraga berish va bozorlardan tushumlar ham to‘liq tuman byudjetiga beriladi.

Viloyat, tuman hokimlariga samarasiz va bir-birini takrorlaydigan shtat birliklarni qisqartirib, tejalgan mablag‘ni aholi o‘rtaga qo‘ygan masalalarni hal qilish uchun ajratishga ruxsat etiladi. Bu orqali tumanlar byudjetida yiliga 5 trillion so‘mlik qo‘shimcha manba shakllanadi va u mahallalar infratuzilmasini yaxshilashga sarflanadi.

Kelgusi yilda ilk bor mahalla infratuzilmasini rivojlantirish uchun 20 trillion so‘mni viloyatlarning o‘ziga beryapmiz. Eng muhimi, bu mablag‘larning har bir so‘mi aholimiz

uchun qo‘shilgan qiymat yaratishi zarur. Shu bois bu pullar umuman qaysidir tuman uchun emas, balki mahallada ish o‘rinlari yaratadigan, aholini daromadli qiladigan aniq loyihalarga yo‘naltiriladi.

Marhamat, qaysi mahalla raisi, hokim yordamchisi va mahalla bankiri loyiha qilib, uni asoslab bersa, zarur mablag‘ni olsin. Shunda adolatdan bo‘ladi.

Bu – byudjet mablag‘larini samarali ishlatishda loyihaviy yondashuv bo‘ladi.

Urbanizatsiya va shaharlarni barqaror rivojlantirish bo‘yicha yangi islohotlarni boshlaymiz. Jumladan, shaharlar tartibsiz kengayishining oldini olish bo‘yicha aniq mezonlarni belgilaymiz va shu orqali ekin maydonlari asossiz qisqarib ketishiga chek qo‘yiladi.

Masalan, aholisi 250 ming kishidan ziyod shaharlar hozirgidek tartibsiz kengayib ketaversa, 2050-yilga borib 27 ming gektar ekin maydonlari boy beriladi. Albatta, bunga yo‘l qo‘yish mumkin emas.

Shuningdek, respublikamizda ilk bor 45 ta aglomeratsiya hududini belgilaymiz. Kelgusi yilda “Barqaror shahar” platformasini ishga tushirib, “yashash uchun qulaylik indeksi”ni yuritish yo‘lga qo‘yiladi. Bu indeks orqali shaharlardagi har bir mahallaga xos muammolar aniqlanib, ularga mos yechimlar beriladi.

Biz kambag‘allikni qisqartirish masalasini umummilliy harakatga aylantirdik. Takror aytaman, o‘tgan davrda 8,5 milliondan ziyod aholini kambag‘allikdan chiqarishga erishdik.

Asosiy maqsadimiz – odamlarimizni doimiy daromadli qilishdan iborat. Puli bor odam yaxshi kiyinish va ovqatlanishga, sifatli ta‘lim va malakali tibbiy xizmatdan foydalanishga, mazmunli dam olishga, bir so‘z bilan aytganda, farovon yashashga intiladi.

Muhimi, bu jarayonda tadbirkorlarimiz hal qiluvchi kuch sifatida eng oldingi safda turib, sanoat va servis obyektlarini tashkil qilib, doimiy ish o‘rni yaratishda, aholimiz, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni kasbga o‘rgatib, mahallalarning o‘zida ishli va daromadli qilishda alohida jonbozlik ko‘rsatmoqda. Shuning uchun tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha siyosatimizni davom ettirib, 2026-yilda asosiy soliq stavkalarini o‘zgarishsiz qoldiramiz; tadbirkorlik infratuzilmasi loyihalariga 10 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ ajratiladi; kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun 140 trillion so‘m resurs beriladi. Shundan 43 trillion so‘mi xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi.

Bundan tashqari, 2026-yilda “mahallada sanoat va xizmat” loyihasi orqali 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihasini ishga tushirish uchun 5 trillion so‘m kredit beriladi. Kredit foizining milliy valyutada 10 foizgacha, xorijiy valyutada 4 foizgacha bo‘lgan qismi Tadbirkorlik kompaniyasidan qoplab beriladi. Buning uchun ham byudjetdan 400 milliard so‘m yo‘naltiriladi. Natijada mahallalarda 100 mingta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Har bir mahallada 40 tadan mikroloyihani amalga oshirib, 360 ming aholini ishli qilish uchun mahalla bankirlari va hokim yordamchilariga 2026-yilda yana

7,5 trillion so‘m resurs ajratiladi.

Yangi yilda mahallalardagi aholini, xususan xotin-qizlarni sportga keng jalb etish, buning uchun zarur infratuzilmani yaratish bo‘yicha uch yillik dastur qabul qilib, bunga 1 trillion so‘m yo‘naltiramiz. Mahalla yoshlarining kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida maktab kutubxonalarini har yili 10 million dona badiiy adabiyot bilan ta‘minlab boramiz.

Ana shunday ishlarimiz tufayli 2026-yilda 1 million odamni doimiy ish bilan ta‘minlab, 181 ming oilani kambag‘allikdan chiqaramiz, kambag‘allik va ishsizlik darajasini 4,5 foizga tushiramiz, kambag‘allikdan xoli mahallalar sonini 3,5 mingtaga yetkazamiz.

Qadrli vatandoshlar!

Ikkinchi ustuvor yo‘nalishimiz – iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘shish modeliga o‘tkazishdan iborat.

Jahon miqyosida raqobat tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda faqat yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaradigan davlatlargina dunyo bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Shuning uchun iqtisodiyotning barcha sohalarida yuqori samaradorlikka erishish – kelgusida islohotlarimizning bosh mezon bo‘lishi shart.

Masalan, sanoatda yuqori texnologik va kam energiya iste‘mol qiladigan tarmoqlarni rivojlantirganimiz hisobiga joriy yilda 1 dollar mahsulot uchun sarflanadigan yoqilg‘i-energiya miqdorini 13 foizga kamaytirishga erishdik. Birgina shuning o‘zi yana 1 milliard dollarlik qo‘shilgan qiymat yaratish imkonini berdi.

Bu misol shuni ko‘rsatadiki, qayerda yangi texnologiya va yuqori malakali kasb egalari bo‘lsa, o‘sha tarmoqda o‘shish, rivojlanish bo‘lmoqda.

Shu bois 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 240 milliard dollardan oshirish uchun eng to‘g‘ri yo‘l barcha sohalarini texnologik va innovatsion o‘shish modeliga o‘tkazishdir. Bu kelgusi yillarda iqtisodiy taraqqiyot strategiyamizning asosiy yo‘nalishi bo‘ladi.

Yurtimizdagi qulay biznes muhiti, demografik o‘shish, inson kapitaliga berilayotgan e‘tibor O‘zbekistonni investorlar uchun eng jozibador mamlakatlardan biriga aylantirmoqda. Masalan, biz to‘qqiz yilda barcha iqtisodiyot tarmoqlariga 130 milliard dollarlik xorijiy investitsiya olib keldik. Joriy yilning o‘zida chet ellik hamkorlarimiz bilan yana 140 milliard dollarlik yangi investitsiyaviy kelishuvlarga erishdik.

Kelgusi yilda 50 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilamiz. Bundan buyon har bir dollar investitsiya, eng avvalo, ilg‘or texnologiyalar va ularning transferi; tashqi bozori aniq, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga; energiya, suv, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishda samaradorlikni oshirishga; mahalliy ishchilarni yangi texnologiyalar bilan ishlashga o‘qitish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Ya‘ni yuqori texnologiya va yangi kompetensiyalar olib kirgan,

eksport uchun ishlagan investor eng ishonchli hamkorimiz bo‘ladi.

Bunday strategik investorlarga loyiha uchun yerlar bozor qiymatida to‘g‘ridan to‘g‘ri beriladi. Yer toifasi o‘zgarganida nobudgarchilik uchun to‘lovni 10 yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lashga ruxsat etiladi. Yerni rasmiylashtirish, toifasini o‘zgartirish, qurilish va infratuzilmaga ulanishga ruxsatnoma olish uchun investorlar idorama-idora yurmaydi. Ularga “yagona darcha” tamoyili asosida kompleks xizmat ko‘rsatadigan “invest.gov.uz” elektron platformasi ishga tushiriladi va barcha vazirliklar bunga ulanadi.

Shu bilan birga, erkin iqtisodiy zonalarga dunyoning mashhur brendlarini jalb qilamiz. Ushbu zonalardagi korxonalar xalqaro texnik reglamentlar, ekologik va mehnat standartlarini qo‘llashi mumkin bo‘ladi. Ular uchun maxsus – imtiyozli investitsiyaviy, soliq, bojxona va huquqiy rejim joriy etiladi va xalqaro huquq doirasida arbitraj nizolarini ko‘rib chiqish imkoniyati yaratiladi.

Bularning barchasi kelgusi besh yilda 180 milliard dollarlik xorijiy investitsiya hisobidan 1 million yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Yurtimizga investitsiyalar oqimini ko‘paytirish bo‘yicha ham juda katta rejalarimiz bor. Shuning uchun har bir kelishuvni loyihaga aylantirish, sarmoyalarni qisqa fursatda jalb qilish va ularning samaradorligiga mas‘ul, faqat va faqat investitsiya bilan ishlaydigan alohida yangi tizim tashkil etiladi.

Bundan tashqari, mahalliy sanoat va kooperatsiyani rivojlantirish bo‘yicha ham xuddi shunday alohida tizimni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Umuman, iqtisodiyotni raqobatdosh qilish, investitsiyalar samaradorligini oshirish, sanoat tarmoqlarini texnologik transformatsiya qilish mutlaqo yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Buning uchun Iqtisodiyot va moliya, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirliklari faoliyati tubdan qayta ko‘rib chiqiladi.

Yangi texnologik bosqichga o‘tish va qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish bo‘yicha sanoatni rivojlantirish dasturini boshlaymiz. Bunda kelgusi besh yilda sanoatda qo‘shilgan qiymatni hozirgi 36,5 milliard dollardan kamida 60 milliard dollarga yetkazishni (o‘shish 1,6 barobar); yuqori va o‘rtadan yuqori texnologiyali tarmoqlardagi mahsulotlar hajmini 2,5 barobar oshirishni marra sifatida belgilaymiz. Bunga puxta tayyorgarlik ko‘rish maqsadida 2026-yilda 52 milliard dollarlik 782 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihasiga start beriladi.

Kelgusi yilning o‘zida 14 milliard dollarlik 228 ta yangi yirik quvvat ishga tushiriladi. Masalan, Navoiydagi oltin konlarida ma‘dan qazib olish bo‘yicha 320 million dollarlik loyiha (3-navbati) ishga tushirilib, qo‘shimcha 2 million tonna ma‘dan qayta ishlanadi. Shuningdek, “Muruntov” konini o‘zlashtirishning navbatdagi bosqichi hamda kumush konlari bo‘yicha 2 milliard 300 million dollarlik yirik loyihalar amalga oshiriladi. Natijada

yiliga 18 million tonna ma'danni qayta ishlash quvvati barpo etilib, 2030-yilgacha oltin ishlab chiqarish hajmi 175 tonnaga yetkaziladi.

Yana bir yirik loyiha – Olmaliq kombinatida qiymati 2 milliard 700 million dollar, quvvati 300 ming tonna mis katodidan iborat bo'lgan yangi metallurgiya majmuasini barpo etish boshlanadi.

“Samarqand kimyo” zavodida 381 million dollar investitsiya hisobidan yiliga 370 ming tonna fosforli va 540 ming tonna murakkab o'g'it ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Qashqadaryoda 200 million dollarlik yangi kimyo zavodi qurilishi boshlanadi.

Umuman, 2026-yilda kimyo sanoatida 4,5 milliard dollarlik; tog'-kon metallurgiya, neft-gaz, avtomobilsozlik, to'qimachilik va qurilish materiallari tarmoqlarining har birida 3 milliard dollardan; elektrotexnikada 2 milliard dollarlik; farmatsevtikada 800 million dollarlik yangi loyihalar boshlanadi. Shu tariqa 2026-yilda jami eksportimizni 40 milliard dollarga yetkazib, tayyor va yarim tayyor mahsulot ulushini 55 foizdan oshiramiz.

Kelgusi yili iqtisodiyotda 6,6 foiz o'sishni ta'minlab, yalpi ichki mahsulotni 167 milliard dollarga yetkazish prognoz qilinmoqda. Agar mehnat unumdorligi, energiya samaradorligi va tannarx bo'yicha qattiq ishlansa, bu ko'rsatkichni yanada oshirish uchun barcha imkoniyatlar bor.

Shu bois sanoatda “Unumdorlik va samaradorlikni ikki karra oshirish” dasturini boshlaymiz. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan mehnat unumdorligi va energiya samaradorligi bo'yicha alohida loyiha amalga oshiriladi. Ushbu loyihaga xalqaro moliya institutlaridan 200 million dollar kredit va grant jalb qilinib, sanoat korxonalari uchun xorijdan yuqori malakali texnolog va muhandislar olib kelinadi; biznes jarayonlari raqamlashtiriladi; energiya va boshqa xarajatlarni qisqartirish bo'yicha auditlar o'tkaziladi; ilg'or texnologiyalar transfer qilinadi.

Bu borada “To'rtinchi sanoat inqilobi markazi” tashkil etiladi. Markaz negizida robototexnika, internet buyumlari, “aqlli” fabrika kabi “Industriya 4.0” yechimlarini sanoat korxonalarida joriy etish uchun “tartibga solish mexanizmi” yaratiladi. Bunda korxonalar yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishdan oldin ularni sinovdan o'tkazish imkoniga ega bo'ladi.

Akkreditatsiya, metrologiya va standartlashtirish sohasidagi islohotlarimiz natijasida O'zbekiston “Global sifat infratuzilmasi” indeksida so'nggi ikki yilda 15 pog'ona yuqorilab, 185 ta davlat ichida 52-o'ringa ko'tarildi.

Bu albatta yaxshi. Shu bilan birga, mahsulotlarimiz raqobatdoshligini yanada oshirish uchun texnik tartibga solish sohasini yangi bosqichga olib chiqamiz. Buning uchun “Davlat nazorati” tizimidan xalqaro tajribada yuqori samara bergan “Bozor nazorati” tizimiga o'tamiz. Shuningdek, innovatsiya asosida yuqori texnologik mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonalarni rag'batlantiramiz. Ular shunday mahsulotni o'tgan yilga nisbatan oshirsa, ko'paygan mahsulot hajmi

qiymatining 5 foizi miqdorida subsidiya beriladi. Korxona mutaxassislarining ilmiy tadqiqot va konstruktorlik ishlanmalaridan olgan daromadi soliqdan ozod qilinadi.

Ana shunday islohotlar orqali kelgusi besh yilda sanoatda mehnat unumdorligi hozirgi 16,5 ming dollardan 30 ming dollarga yetkaziladi; 1 ming dollarlik qo'shilgan qiymat yaratishga ketadigan energiya sarfi 1,5 barobar kamaytiriladi.

Bu yil IT, moliyaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt kabi yo'nalishlardagi mahalliy startaplarga xorijdan 270 million dollar investitsiya jalb qildik. Keyingi yildan “Raqamli startaplar” dasturini kengaytirib, startap g'oyasidan to eksportgacha ko'maklashadigan yangi tizimni yo'lga qo'yamiz. Bunda xususiy startap markazlarini tashkil etish uchun Yoshlar jamg'armasidan besh yil muddatga 5 milliard so'mgacha foizsiz ssuda beriladi. Oliygothlarning o'zida qoladigan mablag'larning 10 foizi ham inkubatsiya markazlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, Markaziy bankda Moliyaviy texnologiyalar ofisi va Innovatsion xab tashkil etilib, unga Singapurdan mutaxassislar jalb qilinadi. Bu orqali yiliga 20–30 ta moliyaviy texnologiyalar startapini tashqi bozorga olib chiqish, ularga jami 1 milliard dollar investitsiya jalb etish imkoniyati yaratiladi.

Umuman, venchur fondlar, startaplar, moliyaviy texnologiyalar kabi yangi moliyaviy instrumentlar bozorini rivojlantirish, bu sohadagi barcha ishtirokchilar huquqlarini qonun bilan kafolatlab qo'yish zarur. Buning uchun parlamentimiz hukumat bilan birgalikda “Muqobil investitsiya jamg'armalari to'g'risida”gi qonun loyihasini 1-martgacha ishlab chiqsa, ayni muddao bo'ladi.

Bu yil mamlakatimizda IT xizmatlari eksporti ilk bor 1 milliard dollarni tashkil etdi. Biz 2030-yilga borib, IT xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish bo'yicha katta marra olganmiz. Shu bois jahon bozorida raqobatdoshlikni oshirish uchun Raqamli texnologiyalar xalqaro markazini tashkil etdik, IT infratuzilmasiga investitsiya kiritish uchun qator imtiyozlar berdik.

Kelgusi yilda Toshkent shahri, Buxoro, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida 4 ta data-markaz, 2 ta super kompyuter va 15 ta oliygohda sun'iy intellekt laboratoriyasi faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bu tibbiyot, transport, qishloq xo'jaligi, geologiya, bank-moliya, jamoat xavfsizligi kabi muhim sohalarda 100 dan ortiq sun'iy intellekt loyihasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda minglab iqtidorli yoshlarimiz IT va sun'iy intellekt bo'yicha izlanish olib bormoqda. Ularning kvant, dron, robototexnika kabi yo'nalishlardagi konstruktorlik loyihalarini amaliyotga tatbiq qilish uchun Raqamli texnologiyalar markazi tashkil etiladi. Osiyo taraqqiyot banki buni qo'llab-quvvatlab, 200 million dollar ajratishga tayyorligini bildirdi.

Sun'iy intellekt bilan yonma-yon yuradigan kosmik sohadagi tadqiqotlarni rivojlantirish, yo'ldoshli aloqa texnologiyalarini joriy etish borasida ham katta qadamlar tashladik. Bu borada 2028-yilda

Samarqandda Xalqaro astronautika kongressini o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'ryapmiz.

Bugun sizlarga yana bir muhim yangilikni aytmoqchiman. Mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bor kosmik sohada sun'iy yo'ldosh va mamlakatimiz fuqarosi bo'lgan birinchi o'zbek kosmonavtini fazoga uchirish bo'yicha ishlarni boshladik. Bu Yangi O'zbekistonning ilmiy va texnologik rivojlanishiga, umuman, milliy taraqqiyotimizni yangi bosqichga olib chiqishga katta turtki beradi, deb ishonaman.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Ma'lumki, ishlab chiqarish ham, iste'mol ham barqaror o'sishi uchun uzoq muddatli mablag' zarur. Shu bois kapital bozorini iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradigan muhim institutsional ustun sifatida belgilab, global depozitariylarni milliy fond bozorimizga olib kirishimiz kerak. Buning uchun xalqaro moliya tashkilotlari bilan ishlab chiqilgan “Kapital bozori to'g'risida”gi yangi qonun loyihasini tez fursatda qabul qilish lozim.

Kurs tebranishi bo'yicha xatarlarni kamaytirish uchun mahalliy kompaniyalarga ichki bozorda ham xorijiy valyutada obligatsiya chiqarishga ruxsat beriladi.

Kelgusi yili korxonalarimiz ilk bor xalqaro bozorlarda ham aksiyalarini joylashtirishi mumkin bo'ladi.

Umuman, kapital bozorini rivojlantirish orqali tadbirkorlarga qo'shimcha 1 milliard dollar jalb qilish imkoniyati yaratiladi.

2026-yilda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha ham tub burilishni amalga oshiramiz. Ko'rgan chora-tadbirlarimiz natijasida kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini 45–50 foizdan 28 foizga pasaytirishga erishdik. Lekin bu hali dastlabki qadamlar xolos.

Bu boradagi ishlarni kuchaytirish uchun alohida dastur qabul qildik. 2026-yilda barcha davlat xizmatlari va kommunal to'lovlar, yoqilg'i, alkogol va tamaki mahsulotlari, avtomobil va ko'chmas mulk savdolari naqdsiz to'lov shakliga o'tkaziladi; soliq, bojxona, sanitariya-epidemiologiya nazorati, standart, karantin, qurilish nazorati inspeksiyasi, yong'in xavfsizligi kabi 17 turdagi tekshiruvda “bodi-kamera”dan foydalanish majburiy bo'ladi.

“Soya”dagi iqtisodiyotdan ixtiyoriy ravishda shaffoflikka chiqmoqchi bo'lgan tadbirkorlar buxgalteriya, statistika, soliq hisobotlarini yuritish bo'yicha bepul o'qitiladi.

Umuman, dastur doirasida kelgusi besh yilda yashirin iqtisodiyot ulushi 2 karra qisqartiriladi; savdo va servis sohasida naqd pulsiz to'lovlar ulushi 75 foizdan oshiriladi; rasmiy sektorda band bo'lgan aholi soni hozirgi 8,5 milliondan 14 millionga yetkaziladi.

Bir so'z bilan aytganda, “Halol mehnat – xotirjam hayot va farovon jamiyat garovi”, degan shior asosida bu boradagi ishlar umummilliy harakatga aylantiriladi.

Ayrim yurtdoshlarimizda topgan daromadini iqtisodiyotga yo'naltirish, bank depozitiga joylashtirish, aktivlarini o'z nomiga rasmiylashtirish bilan bog'liq xavotirlar bor. Shu bois deputatlarimiz va Markaziy bank xalqaro tashkilotlar bilan maslahatlashgan holda

fuqarolarimiz yurtimizda yoki chet elda shu paytgacha olgan daromad va aktivlaridan emin-erkin foydalanishiga sharoit yaratish bo'yicha takliflar tayyorlasa, o'ylaymanki, to'g'ri bo'ladi.

Hurmatli parlament a'zolari!

Endi, ruxsatingiz bilan, **uchinchi ustuvor yo'nalish – ichki bozorda talabni rag'batlantirish** masalasiga to'xtalmoqchiman.

Bozorlarimizdagi to'kinlik, narx-navo barqarorligi, aholining iste'mol talabi ortib borayotgani – turmush sifati yaxshilanayotganini ko'rsatadigan eng asosiy omil.

Ichki talabni rag'batlantiradigan muhim faktorlardan biri bu inflyatsiya darajasidir.

Biz to'qqiz yilda qulay biznes muhitini yaratib, tovar va xizmatlar hajmi va turini ko'paytirganimiz; aholini daromadli qilib, kambag'allikni keskin qisqartirganimiz; kam daromadli oilalar uchun ham yiliga kamida 1 milliard dollar arzon kredit berayotganimiz; narx-navoni jilovlab, inflyatsiya darajasini “bir xonali” raqamga tushirganimiz natijasida aholining xarid qobiliyati 2 karra o'sdi.

Birgina misol, besh yil oldin aholimiz yiliga 210 mingta kvartira, 600 mingta avtomobil xarid qilgan bo'lsa, bu yil 270 mingta uy, 1 millionta mashina sotib oldi. Agar aholining daromadi, xarid qobiliyati oshmaganida, birgina ko'chmas mulk va avtomobil bozori 20 milliard dollarga yetarmidi?

O'tkazilgan so'rovlar ham, xalqaro ekspertlar tahlillari ham 75 foiz aholining moliyaviy holati keskin yaxshilanganini tasdiqlamoqda. Albatta, bu natijalar bilan cheklanib qolmasdan, xalqimizning daromadi va xarid qobiliyatini oshirish bo'yicha ishlarni izchil davom ettiramiz.

Tahlillarga ko'ra, aholi daromadi 10 foizga ko'paysa, iste'mol 8 foizga oshadi. Bu – yangi mahsulot va xizmatlarga talab degani, bu – qo'shimcha quvvatlar, qo'shimcha ish o'rni degani.

Aholi ehtiyojidan kelib chiqib, iqtisodiyotda eng katta talab yaratadigan uy-joy ipotekasiga 2026-yilda 23 trillion so'm resurs ajratamiz. Uy-joy sotib olishda boshlang'ich to'lov va foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun 2 trillion 700 milliard so'm subsidiya beriladi. Shuningdek, bitta kvartira uchun ajratiladigan imtiyozli ipoteka krediti miqdori 15 foizga oshiriladi.

Kelgusi yilda 140 mingta kvartirali ko'p qavatli uy-joy barpo etilishi ro'zg'or uchun zarur iste'mol tovarlariga talabni oshirishi tabiiy albatta. Bu talabni moliyaviy manbalar bilan ta'minlash maqsadida 2026-yilda joriy yilgi 104 trillion so'm o'rni 125 trillion so'mlik iste'mol krediti ajratiladi.

Umuman, 2026-yilda qurilish ishlari hajmini 11 foiz ko'paytirib, 30 milliard dollarga yetkazishni reja qilyapmiz.

Buning iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatishini hisoblab ko'raylik. Qurilish materiallari, uy-ro'zg'or uchun to'qimachilik mahsulotlari, elektr texnikasi, mebelsozlik kabi tarmoqlar, ushbu obyektlarga xizmat ko'rsatadigan servis sohalari uchun qo'shimcha 5 milliard dollarlik bozor bo'ladi. Bu – 300 mingta qo'shimcha yangi ish o'rni degani.

Aholi daromadi ko'paygani xizmatlarga talabni oshirib, servis sohasi iqtisodiyotning "drayveri"ga aylanishi uchun katta turtki bermoqda. Bu yilning o'zida xizmatlar hajmi qariyb 15 foiz o'sib, 82 milliard dollarga yetdi.

Xizmatlarga bo'lgan talabni rag'batlantirish uchun 2026-yilda sohaga 85 trillion so'm kredit, 9 trillion so'm subsidiya ajratamiz. Xususan, ta'lim xizmatlari uchun byudjetdan 7 trillion so'm beriladi.

Keyingi besh yilda xorijiy turistlar sonini 2 karra – 11 million nafardan 20 million nafarga oshirish, turizm xizmatlari hajmini esa 20 milliard dollarga yetkazish bo'yicha katta marra olyapmiz. Shu maqsadda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratyapmiz. Samarqandda Bibixonim, Registon majmualari, Amir Temur maqbarasi, Ulug'bek rasadxonasi, Shohi Zinda va Afrosiyob muzeyini bir-biri bilan bog'laydigan zamonaviy yo'lak va ko'priklar barpo etiladi.

Shahrisabzda "G'elon" yirik turistik majmuasining birinchi bosqichi ishga tushiriladi. Pop tumanida "Arashan" tog'-dam olish turistik zonasi tashkil etiladi. Xivadagi Ichanqal'ani immersiv, ya'ni "jonli" va "aqli" muzey-shaharga aylantiramiz. Xorazm va Qoraqalpog'istondagi arxeologik yodgorliklar bo'ylab yirik turizm halqasi tashkil etiladi.

Shuningdek, yangi yilda tadbirkorlar tomonidan 4 milliard dollarlik 3,5 mingdan ziyod yangi servis obyekti ishga tushiriladi. Turizm maskanlarini tashkil qilish uchun kelgusi uch yilda 5 ming gektar yer auksionga chiqariladi.

Bundan tashqari, 2026-yildan "O'zbekiston merosi mehmonxonalari" dasturini boshlaymiz. Madaniy meros obyektlarida xususi sheriklik asosida "butik mehmonxona" tashkil qilish uchun nufuzli mehmonxona tarmoqlari olib kelinadi. Dastur ishtirokchilariga yer, mulk, foyda soliqlari va bojxona to'lovi bo'yicha imtiyoz beriladi.

Mana shu ishlar hisobiga 2026-yilda xizmatlar bozorini 100 milliard dollardan oshiramiz.

Turistlar oqimi tobora oshayotgani aviatsiya va temiryo'lda yo'lovchi tashish quvvatini 2 barobar ko'paytirishni taqozo etmoqda. Shu bois 2026-yilda aviaparkdagi havo kemalari sonini 105 tadan 120 taga yetkazamiz. Mahalliy aviaqatnovlar sonini oshirish uchun subsidiyalashning yangi tizimi joriy etiladi.

Endi, narxidan qat'i nazar, sotilgan har bir chipta uchun aniq miqdorda subsidiya ajratiladi. Bu chipta narxini pasaytirish va talabni oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yangi samolyotlarimiz uchun uchuvchilar, ularga texnik xizmat ko'rsatuvchilar, aeroportlar uchun servis va boshqaruv sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadida Fuqaro aviatsiyasi universiteti tashkil etiladi.

Janubiy Koreyaning "Hyundai Rotem" kompaniyasidan 6 ta tezyurar poyezd olib kelamiz. Buning birinchi tarkibi yaqin kunlarda keladi.

Umuman, ichki temiryo'llarni rivojlantirish bo'yicha besh yillik dastur qabul qilinadi.

Shaharlarni tezyurar poyezdlar qatnovi bilan bog'lash uchun

2026-yildan yana 500 kilometr temiryo'l qurishga kirishamiz. Kelgusi yili 110 kilometr temiryo'l tarmog'i qurilib, Bo'ka, Piskent, Bekobod, Boyovut tumanlari hamda Nurafshon shahri poytaxt bilan bog'lanadi. Toshkent – Samarqand yo'nalishida yuqori tezlikda harakatlanadigan yo'lovchi poyezdlar uchun yangi temiryo'l liniyasi qurishni boshlaymiz. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Navoiydagi vokzallar ham xususi sheriklik uchun beriladi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tahliliga ko'ra, sifatli yo'llar iqtisodiyotimizning kamida 2 foiz o'sishiga turtki beradi.

Avtomobil yo'llarining sifatini yaxshilash, tranzit salohiyatini yanada oshirish maqsadida besh yillik dastur amalga oshiriladi. Bunda Andijon bilan Qo'ng'irotni, Toshkent bilan Termizni, Samarqand bilan Shahrisabzni, Olot bilan Sariosiyoni bog'laydigan, uzunligi 4 ming kilometr magistral yo'llarni xalqaro talablarga mos "avtoban"larga aylantiramiz.

2026-yilning o'zida Qoraqalpog'iston, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo hududidan o'tgan umumiy foydalanishdagi 300 kilometr yo'llarda rekonstruksiya ishlari yakunlanadi.

Toshkent – Samarqand, Toshkent – Andijon, Toshkent – Bo'stonliq, Pung'on – Namangan va Qarshi – Shahrisabz yo'nalishida yuqori tezlikda harakatlanishga mo'ljallangan 800 kilometr yo'llar qurilishiga katta tayyorgarlik ko'rib, hamkorlarni belgilab oldik.

Toshkent – Samarqand yo'lining qurilishi mart oyidan, qolgan yo'llar bo'yicha amaliy ishlar esa 1-iyuldan kechiktirmasdan boshlanadi. Yana 1 ming 200 kilometr yo'llar 2030-yilgacha xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda qayta quriladi.

Endi yo'llarni loyihalashtirishda aholining fikri, transport qatnovining atrof-muhitga ta'sirini inobatga olish, piyodalar uchun "to'siqsiz" muhit yaratish bo'yicha qat'iy talablar qonun darajasida mustahkamlanadi.

Yo'l qurilishiga ilg'or texnologiya va standartlarni joriy etish ustuvor tamoyil sifatida belgilanadi. Parlamentimiz "Avtomobil yo'llari to'g'risida"gi qonunni yangi tahrirda qabul qilishda yo'llarni rejalashtirish tizimini nazarda tutsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aholining daromadi, xorijiy turistlar oqimi tobora ortib borayotgani kelgusi besh yilda oziq-ovqatga bo'lgan talabni 1,5 karra oshiradi. Shuning uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini hozirgi 40 milliarddan 60 milliard dollarga yetkazish bo'yicha katta marra olamiz.

Ikki hafta oldin agrar soha vakillari bilan uchrashib, qishloq xo'jaligida hosildorlikni yangi texnologiyalar asosida oshirish bo'yicha barcha masalalarni yechimi bilan muhokama qilib oldik.

Umuman, yangi yilda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash uchun 52 trillion so'm ajratamiz.

Oziq-ovqat mahsulotlarini xalqimizga barqaror narxda yetkazib berish ham to'liq isloh qilinadi. Bozorlarimizni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yil – o'n ikki oy barqaror narxda ta'minlash uchun 2026-yildan doimiy intervensiya

tizimiga o'tamiz. Hududlardagi "Oziq-ovqat jamg'armalari"ga ajratiladigan resursni 2,5 barobar ko'paytirib, 500 milliard so'mga yetkazamiz. Shuningdek, meva-sabzavotga ixtisoslashgan 1 mingta mahallada sig'imi 100 tonnagacha bo'lgan kichik sovitkichli omborlar barpo etiladi.

Bu ishlarimiz kelgusi yil inflyatsiya darajasini 6-6,5 foiz tushirishga xizmat qiladi.

Muhtaram vatandoshlar!
Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish kelgusi yil uchun dasturimizning to'rtinchi ustuvor yo'nalishidir.

Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish va sun'iy intellekt ta'sirida dunyoda ish o'rinlarining soni, shakli va mazmuni keskin o'zgarimoqda. Yaqin besh yilda mavjud kasblarning 30 foizi to'liq avtomatlashtiriladi, 50 foizi bo'yicha esa yangi malakalar talab qilinadi.

Bu jarayonlar bizni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Sanoatda avtomatlashgan liniyalari, agrar sohada aqlli texnologiyalar, transportda intellektual boshqaruv kundalik hodisaga aylanib bormoqda.

Endi mamlakatimizning mehnat bozori mutlaqo yangi arxitektura asosida kasb, malaka, texnologiya va ta'limni birlashtiradigan yagona mexanizm sifatida ishlashi zarur.

Mutaxassislarning fikricha, bolada biror bir kasbga qiziqish 7-sinfдан boshlanib, qaysi kasbni tanlashi 9-sinfda to'liq ma'lum bo'ladi. Shu bois 9-sinf bitiruvchilarini fanlarni o'zlashtirishi va kasbiy qiziqishiga qarab saralab olish tizimini joriy qilamiz. Bunda oliygohlarga kirish istagida bo'lmagan yoshlar texnikumlarga yuboriladi.

Yaqinda texnikumlarga zamonaviy qiyofa va yangicha muhit olib kirish bo'yicha besh yillik dasturni tasdiqladik.

Mening niyatim – yoshlarimiz talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha dunyoda raqobatdosh bo'lsin, kerak bo'lsa, boshqalardan bir pog'ona ustun tursin. Ushbu maqsadga erishish yo'lida kasbiy ta'limning eng muhim bo'g'ini bo'lgan texnikumlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqamiz. Buning uchun 2026-yildan boshlab, har yili kamida 100 tadan texnikumni to'liq ta'mirlab, texnologik va talab yuqori bo'lgan kasblarga mos holda jihozlab boramiz. Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarning ilg'or ta'lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar sonini 100 taga yetkazamiz.

Bugun sizlarga yana bir yangilikni yetkazmoqchiman: 2026-yilda 7 ta viloyatda, 2027-yilda esa qolgan hududlarda ilg'or kasbiy mahorat texnikumi va "Kasblar shaharchasi" faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bunda ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari hududdagi boshqa texnikumlar uchun metodik va amaliyot bazasi sifatida faoliyat yuritisa, "Kasblar shaharchasi" maktab o'quvchilarini qurilish, servis, qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, "yashil" energetika kabi sohalaridagi zamonaviy kasblarga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Bu tizimni mamlakatimizda uch yil oldin yo'lga qo'yib, o'quvchilar qamrovini 15 foizga yetkazdik.

Bugun avtomobilsozlik, "yashil" energetika, qurilish, transport, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi,

turizm, servis, IT kabi yo'nalishlarda 70 mingga yaqin o'quvchi dual ta'lim asosida o'qib, oyiga 10 million so'mgacha maosh olmoqda.

Endi texnikum va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqamiz. Xususan, dual ta'lim asosida o'qitishni samarali tashkil qilgan korxonalarga 7 yil muddatga 5 milliard so'mgacha imtiyozli kredit ajratiladi; tadbirkorlik reytingida qo'shimcha 5 ball beriladi; korxonalar ishga olgan texnikum o'quvchisi uchun 1 foizli ijtimoiy soliq imtiyozi yana uch yilga uzaytiriladi.

Shuningdek, 2026-yildan boshlab texnikumlarda ta'lim olayotgan 100 ming o'quvchiga ilk bor stipendiya to'lanadi; "a'lo" baholarga o'qiyotgan, tanlagan kasbini puxta egallayotgan farzandlarimizga esa oshirilgan miqdordagi stipendiyalar beriladi.

Iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari uchun yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashga e'tiborni kuchaytirishimiz zarur.

Jizzax politexnika institutini Vengriyaning nufuzli Obuda universiteti boshqaruviga berish bo'yicha qaror qabul qildik.

Yaqinda Yaponiyaga tashrifimiz davomida O'zbekistonda Sukuba milliy universiteti bilan hamkorlikda aniq fanlar bo'yicha yangi oliygoh tashkil qilish haqida kelishib oldik.

Biz bu tajribani davom ettirib, aniq fanlar va texnika yo'nalishidagi oliygohlarimizga dunyoning eng nufuzli universitetlarini jalb qilamiz.

Yana bir masala – mehnat bozoriga yiliga 300 ming oliy ma'lumotli kadrlar kirib kelmoqda. Endi oliygoh bitiruvchilari va ish beruvchilar o'rtasida ko'prik bo'lib xizmat qiladigan raqamli ekotizim yaratamiz. Unda talabalarning akademik ko'rsatkichlari va korxonalardagi bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar onlayn tarzda ko'rinib turadi. Ushbu ekotizim bitiruvchi kurs talabalari uchun o'ziga mos ish topish, korxonalarga esa malakali kadrlarni jalb qilish imkonini beradi.

Bu yil sog'liqni saqlash xodimlari bilan ikki marta uchrashib, ko'rib chiqilgan barcha masalalar bo'yicha alohida farmon va qarorlar qabul qildik.

Tibbiyot tizimida ham kasbiy ta'limni rivojlantirish uchun Angliyaning "Pearson" kompaniyasi bilan har bir hududdagi bittadan texnikumda xalqaro standart asosida hamshiralar tayyorlash boshlandi. Endi ana shu texnikumlarga Germaniya, Shveysariya, AQSh, Yaponiya kabi davlatlarning ta'lim dasturlari ham joriy etiladi. Shu asosda xalqaro talablarga javob beradigan, xorijiy tillarni biladigan hamshiralar tarkibini shakllantiramiz.

Keng ko'lamli islohotlarimizni sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish bo'yicha ham jadal davom ettiramiz. Tibbiyot muassasalarini yagona yondashuv asosida tashkil etish uchun "master reja" ishlab chiqiladi.

Bundan tashqari, infarkt, insult, onkologik, nefrologik kabi yuqumli bo'lmagan kasalliklarni davolash hamda transplantatsiya, vaksinatziya, ona-bola salomatligini muhofaza qilish yo'nalishlariga o'tgan yillardan 1,5 barobar ko'p – 3,5 trillion so'm ajratamiz.

Qadrli do'stlar!

Ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish beshinchi ustuvor yo'nalishimizdir.

Yirik korxonalarga filtr, tozalash inshooti va havoga chiqariladigan zararli moddalarni monitoring qilish stansiyasi o'rnatish uchun birinchi bosqichda 100 million dollarlik kredit liniyasi ochiladi.

Kelgusi yili Samarqandda Global ekologik jamg'armaning navbatdagi assambleyasi va Markaziy Osiyo xalqaro ekoko'rgazmasi o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ushbu tadbirlar tarmoqlar, hududlar va biznes uchun hamkorlar topish, yangi ekoloyihalarni birgalikda boshlashga katta imkoniyat yaratadi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida 2 mingga yaqin ko'mir va gazda isitiladigan issiqxona bor. Ulardan havoga yiliga 137 ming tonna zararli modda chiqadi. Endi ko'mirda filtrsiz ishlaydigan qozonxonalardan voz kechamiz. Ularni poytaxt atrofidan ko'chirib, hamma joyda markazlashgan qozonxonalar orqali isitishni yo'lga qo'yamiz. Shu maqsadda 200 gektardan kam bo'lmagan agroklasterlar tashkil etiladi, ularning tarkibiga o'tadigan issiqxonalarga alohida subsidiya beriladi.

Shaharlarimizdagi tirbandliklar nafaqat odamlar hayotini qiyinlashtirmoqda, balki ekologiyaga ham jiddiy zarar yetkazmoqda. Shu bois dunyo tajribasidan kelib chiqib, avtomobillar chiqarayotgan zararli moddalar darajasiga qarab, ekologik stikerlar tizimi joriy etiladi. Katta miqdorda zararli moddalar chiqaradigan avtomashinalarning poytaxt va viloyat markazlari hamda shaharlarga kirishi cheklanadi. Bunday transport vositalarini yangisiga almashtirish yoki ularga filtr o'rnatish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari ko'riladi.

Buning uchun alohida jamg'arma tashkil qilinadi. Eski mashinasini almashtiraman deganlarga avtokredit foizining bir qismi qoplab beriladi. Filtr o'rnatib, zararni kamaytirishga tayyor bo'lgan haydovchilar uchun xarajatlarining bir qismi bo'yicha subsidiya ajratiladi.

Azim poytaxtimiz va yirik shaharlarda jamoat transportini rivojlantirish ustuvor vazifamiz bo'ladi. Shahar ko'chalarida avtobus va taksilar uchun maxsus yo'laklar ko'paytiriladi. Toshkent, Samarqand va Namangan shaharlarida transport harakatini intellektual svetoforlar orqali boshqarish tizimi joriy etiladi.

Ekologik avtomobillarni ko'paytirish bo'yicha besh yillik dasturni amalga oshiramiz. Bunda mahalliy elektromobillarga 12 foizli, xorijiy elektromobillarga esa 16 foizli avtokreditlar ajratiladi.

Elektromobillarni quvvatlash stansiyalarini tashkil qilish uchun tadbirkorlarga 10 foizli imtiyozli kreditlar beriladi; yerlarni aukSIONdan 2 karra arzon narxda sotib olish imkoniyati yaratiladi.

Elektromobillarni quvvatlash stansiyalarida avtomobillarni zaryadlashda 1 kilovatt-soat elektr energiyasi narxining 300 so'mdan oshgan qismi davlat byudjetidan qoplab beriladi.

Elektromobilda taksi xizmati ko'rsatadigan fuqarolarga ham bir qator imtiyozlar beriladi.

Eng asosiysi, bu ishlarni to'g'ri yo'lga qo'ysak, poytaxtimiz, viloyat markazlari va yirik shaharlar faqat ekotransportlar harakatlanadigan hududga aylanadi.

Chang-to'zonlarning oldini olish uchun Surxondaryoda 10 ming gektarda "yashil makon" va Sirdaryoda 84 kilometrli "yashil devor" barpo etiladi. Qoraqalpog'iston, Xorazm, Buxoro va Navoiyda jami 250 ming gektar, jumladan Orolning qurigan tubida 115 ming gektar yerda daraxt va butalar ekiladi.

Har bir hududda botanika va dendrologiya bog'lari hamda 20 tadan soya-salqin sayr ko'chasi barpo qilinadi.

Korxonalarda ekostandartlarni joriy qilish uchun kelgusi besh yilda kamida 30 ming nafar ekologiya menejeriga talab paydo bo'ladi. Shuning uchun 2026-yilda har bir hududda "yashil" texnikumlar tashkil etilib, dual ta'lim asosida yiliga 10 ming mutaxassis tayyorlash yo'lga qo'yiladi.

Yangi yilda Markaziy Osiyo Yashil universiteti faoliyatini kengaytiramiz.

Havo, suv va tuproq sifatini aniqlash imkonini beradigan kompleks laboratoriyalar tashkil etiladi. Shaharlarda tabiiy ventilyatsiyani kuchaytirishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkaziladi.

Umuman, ekologiya sohasiga 2026-yilda 1 trillion 900 milliard so'm yo'naltiriladi.

So'nggi besh yilda 6 ming megavattli quyosh, shamol va gidro elektr stansiyalari ishga tushirildi, umumiy generatsiyada "yashil" energiyaning ulushi 30 foizga yetdi.

Yaqinda hamkorlarimiz bilan jami 3,5 ming megavattli 4 milliard 200 million dollarlik yangi "yashil" quvvatlar qurilishiga start berdik. Bu ishlarimiz orqali 2026-yilning o'zida 7 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi va havoga 11 million tonna zararli modda chiqishining oldi olinadi.

Muhtaram vatandoshlar!

Dunyoda suv tanqisligi muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Shu bois islohotlarimizning ilk kunlaridanoq suvdan oqilona foydalanishni davlat siyosati darajasiga olib chiqdik.

Yaqinda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng qo'llash, suv inshootlarini modernizatsiya qilish, sug'orish tadbirlari bo'yicha kelgusi uch yil uchun qiymati 5,5 milliard dollarlik katta dastur qabul qildik.

Dastur doirasida suvni tejaydigan texnologiyalar qamrovi 61 foizga yoki 2,6 million gektarga yetkaziladi. Natijada yiliga 2,5 milliard kub metr suv tejaladi, 200 ming tonna bug' gazi kamaytiriladi.

Umuman, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish tadbirlariga 2026-yilda jami 3 trillion 300 milliard so'm yo'naltiriladi.

Shuningdek, 1 ming 300 kilometr yirik magistral kanallar beton bilan qoplanadi. Buning uchun byudjetdan 3 trillion so'm sarflanadi. Bu qo'shimcha ravishda yiliga 500 million kub metr suvni iqtisod qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, joylardagi ochiq drenaj va kollektorlarni yopiq tizimga o'tkazish bo'yicha alohida dastur qabul qilamiz. Ushbu maqsadlarga dastlabki bosqichda 2026-yil uchun

100 million dollar ajratamiz.

Kanallarni yopiq tizimga o'tkazish bo'yicha ham katta loyihalarni boshlaymiz. Qashqadaryodagi "Paxtaobod" kanalini bosimli quvurga o'tkazish bo'yicha 134 million dollarlik loyiha bu boradagi birinchi qadam bo'ladi.

Bular orqali qo'shimcha ravishda 20 ming gektar ekin yeri ochiladi, yana 25 ming gektar maydon kafolatli suv bilan ta'minlanadi.

Ayni vaqtda poytaxtimiz, viloyat markazlari va shaharlarda "yashil" hududlarni ko'paytirish uchun sug'orish, drenaj tizimlarini qayta tiklash zarur. Bir so'z bilan aytganda, shaharlarning barcha ko'chalaridagi ariqlarda suv aylanishi kerak. Buning uchun 160 million dollarlik katta dastur doirasida Toshkent shahrida 150 kilometr yopiq drenaj tizimi barpo etiladi, 197 kilometr kanal va kollektorlar ta'mirlanadi; 63 kilometr yangi kanallar barpo qilinib, shaharda salqin mikroiklim yaratiladi.

Boshqa hududlar rahbarlari ham chetdan kamida 20–25 million dollar mablag' olib kelib, kelgusi yildan viloyat markazlari va yirik shaharlarda bunday loyihalarni boshlaydi.

Hurmatli deputat va senatorlar!

Oltinchi ustuvor yo'nalishimiz bo'lgan zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlarimizni davom ettiramiz.

Avvalo, 2026-yildan boshlab Elektron hukumat platformasi tubdan yangilanadi. Endi barcha davlat idoralarining 1 mingdan ziyod davlat xizmati; 5 mingdan ortiq funksiya va vazifasi; 200 ta ma'lumot bazasi va axborot tizimi; 100 mingdan ziyod davlat xizmatchisining mahalla, tuman, viloyat, respublika darajasidagi vakolatlari Yagona raqamli platformaga integratsiya qilinadi.

Platformaga kelib tushgan murojaatlar, ularni ijrochilarga taqsimlash va ko'rib chiqish muddatini nazorat qilish sun'iy intellekt orqali amalga oshiriladi.

Sodda qilib aytganda, mahalladan tortib respublika darajasida hal bo'ladigan har bir masalaning ijrochisi, muddati, resursi bir joyda ko'rinib turadi.

Eng muhimi, davlat xizmatlarini ko'rsatishda inson omilisiz, korrupsiya va ortiqcha byurokrtiyadan xoli ekotizim yaratamiz. Davlat xizmatlarini proaktiv va jamlanma shaklda ko'rsatish tizimini rivojlantiramiz.

Oddiy so'zlar bilan tushuntirsam, yangi uy qurgan fuqaro kadastr hujjatini olish uchun murojaat qilsa, yangi platforma suv, elektr va gazga ulanish masalasini ham shu zahoti hal qilib beradi. Bunday xizmatlar 2026-yilda 100 taga yetkaziladi.

Sh. Shermatov, A. Toshqulov, U. Husainov kelgusi yilda Namangan, Surxondaryo viloyatlari va Toshkent shahri, shuningdek ulardagi tuman va mahallalarda qurilish, adliya, oliy ta'lim, soliq idoralari va ularning viloyat, tuman bo'limlarida ushbu platformani to'liq sinovdan o'tkazishi shart.

Har bir vazir, tarmoq rahbari va hokimlar ham yangi yilda xuddi shunday ishlarni o'z tumanidagi tizimda yo'lga qo'yishni boshlashi, davlat xizmatlarini aholiga yanada yaqinlashtirish bo'yicha qattiq ishlashi zarur.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Bugungi kunda Oliy Majlisimiz eng kuchli parlamentlarga xos bo'lgan barcha nazorat vakolatlariga ega. Xususan, 2023-yildan buyon tashqi qarz miqdorini parlamentimiz belgilab kelmoqda.

Endi davlat kafolati ostida tashqi qarz olish masalasini ma'qullashni ham parlament vakolatiga o'tkazsak, nima deysizlar?

Ko'plab ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar fikrini o'rganib, 2026-yil 1-yanvardan davlat xaridlarida ochiq, shaffof va adolatli tizim yaratyapmiz. Bu tadbirkorlarimizga 300 trillion so'mlik kafolatli bozorda o'zlarining tovar va xizmatlari bilan faol ishtirok etishlari uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Bundan buyon davlat xaridlarida tovar, ish va xizmatlarni to'g'ridan to'g'ri sotib olish mumkin bo'lgan holatlar faqat qonun bilan belgilanadi.

Xabaringiz bor, konstitutsiyaviy islohotlarimiz doirasida viloyat hokimlari va mahalliy kengashlar raislari lavozimlarini bir-biridan ajratgan edik. Endi bu tizim 2026-yil 1-yanvardan 208 ta tuman va shaharda ham yo'lga qo'yiladi. Ayni paytda ushbu jiddiy siyosiy islohot hokimlar va ijro idoralaridan kengashlarga munosabatni mutlaqo o'zgartirishni talab qiladi.

Bundan buyon deputat so'rovlari ijrosi har chorakda tahlil qilinib, sustkashlikka yo'l qo'yilgan holatlar bo'yicha prokuraturaga taqdimnoma kiritiladi.

Islohotlar samaradorligini ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining roli muhim.

Shu bois ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha siyosat kelgusida ham izchil davom ettiriladi. Xususan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha besh yillik strategiya ishlab chiqiladi. Ushbu institutlarga ijtimoiy buyurtma berish tizimi raqamlashtirilib, moliyalashtirish hajmi 2 karra oshiriladi.

Bundan tashqari, xayriya tashkilotlarini tuzish tartibi soddalashtiriladi, hisobdorlik va shaffoflik mexanizmlari takomillashtiriladi.

Takror aytaman, yurtimizdagi keng ko'lamli yangilanishlar davrida ochiqlik siyosatidan hech qachon ortga qaytmaymiz. So'z va matbuot erkinligini ta'minlash ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Muhtaram deputat va senatorlar!

Sud-huquq tizimini xalqqa yaqinlashtirishga qaratilgan ishlarimizni izchil davom ettiramiz.

Biz odil sudlov jarayonini "raqamli sud" konsepsiyasi asosida tashkil etishni boshladik. Endi tergovni ham raqamlashtirish orqali inson huquqlari himoyasini kuchaytiramiz. Bunda jinoyat haqidagi arizani qabul qilishdan boshlab ishni sudga o'tkazishgacha bo'lgan bosqichlarga sun'iy intellekt texnologiyalari joriy etiladi va inson omili qisqartiriladi.

Yurtimizda tergov sudyalari ish boshlagani xalqaro tan olingan "Xabeas korpus" institutini qo'llashning navbatdagi muhim bosqichi bo'ldi. 2026-yildan tergov sudyalariga sanksiya va majburlov choralari o'zgartirish hamda bekor qilish vakolatlarini ham beramiz. Odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik ishtiroki va rolini oshirib boramiz.

Endi jinoyat protsessiga ingliz huquqidagi davlatlarda ijobiy natija bergan “xalq vakillari hay’ati” instituti bosqichma-bosqich joriy etiladi. Bunda o’ta og’ir va jamiyatda shov-shuvga sabab bo’layotgan jinoyatlar jamoatchilik vakillari ishtirokida ko’rib chiqilishi sud hukmining yanada adolatli bo’lishiga xizmat qiladi.

Sud qarorlari ijrosini so’zsiz ta’minlamay turib, fuqaro va tadbirkorlar huquqining ishonchli tiklanishiga erishib bo’lmaydi. Shu bois majburiy ijro jarayoniga samarali muqobil mexanizmlarni ham kiritamiz. Natijada sohaga sun’iy intellekt joriy etilib, kelgusi ikki yilda ijro harakatlarining 30 foizi inson omilisiz amalga oshiriladi.

Ko’ryapsizlar, shiddat bilan o’zgarayotgan dunyoda giyohvandlik xavfi aholi genofondi uchun eng katta tahdidga aylanib bormoqda. Afsuski, bugungi globalashuv davrida bunday xavf-xatar O’zbekistonni ham chetlab o’tmayapti.

Bu yil 14 mingdan ziyod giyohvandlik jinoyati qayd qilingan. Ularning 3 mingga yaqinini yoshlar sodir etgani barchamizni jiddiy o’ylantirishi kerak.

Narkotik savdosi transchegaraviy va virtual xarakterga ega bo’lib bormoqda. Bu esa jinoyatlarni aniqlashda yangi usullarni qo’llashni, zamonaviy bilim va ko’nikmalarni puxta egallashni talab qilmoqda.

Yaqinda ushbu masala bo’yicha milliy dastur qabul qildik. Endi narkojinoyatlarga qarshi kurashishni umummilliy harakatga aylantirib, jamiyatda bu illatga murosasiz muhit yaratamiz.

Kim bu vazifa faqat huquq-tartibot idoralarining ishi, deb o’ylasa, xato qiladi.

Yurtimizdagi har bir bola, har bir yosh – bizning farzandimiz, ularni giyohvandlik changaliga tashlab qo’yishga aslo yo’l qo’ymaymiz.

Giyohvandlikni tag-tomiri bilan butkul yo’qotish, yoshlarimizda kuchli ma’naviy-ruhiy immunitetni shakllantirish bo’yicha barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar qilamiz.

Narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo’yicha respublika ishchi guruhi davlat idoralarining bor kuch va imkoniyatlarini ishga solib, kelgusi yilda narkotiklarni ishlab chiqarish va tarqatish kanallariga chek qo’yish bo’yicha yangi tizim yaratsin.

Bu – Prezidentning topshirig’i, bu – ota-onalarning xohish-istagi, bu – jamiyatning talabi!

Tinchlik hukm surgan, qonun ustuvor bo’lgan, fuqarolarning xavfsizligi ta’minlangan joyga investitsiya ham keladi, bu yerda turizm ham rivojlanadi. Lekin so’nggi paytlarda o’zini qonundan ustun qo’ygan, tadbirkorlarga bosim qilib, ularning biznesini egallab olishga harakat qilayotgan, iqtisodiyotimizga jiddiy putur yetkazadigan murakkab moliyaviy jinoyatlarni sodir etayotgan, o’zini “qozi” deb hisoblab, odamlar o’rtasidagi oldi-berdi masalalarini hal qilib yurgan ayrim jinoiy to’dalar ham kuzatilmoqda.

Eng achinarlisi, “oson pul topaman” degan ilinjda bilagida kuchi bor ayrim sportchilar ham bunday jinoiy to’dalarga qo’shib qolmoqda.

Yana bir yomon jihati – O’zbekiston fuqarolaridan iborat jinoiy guruhlar ayrim chet davlatlarda

ham mavjudligi yurtimizning xalqaro obro’siga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Hamma eshitib olsin: bunday jinoiy to’dalar faoliyatiga chek qo’yishga kuch-qudratimiz yetadi va buni albatta qilamiz!

O’zbekistonda fuqarolarimiz, tadbirkorlarimiz va investorlarni har qanday vaziyatda ham ishonchli himoya qiladigan davlat bor, Konstitutsiya bor, qonunlar bor!

Xotin-qizlarning qadr-qimmatini joyiga qo’yish, farzandlarimizni himoya qilish qadim-qadimdan erkaklar uchun sha’n va g’urur masalasi bo’lib kelgan. Lekin jamiyatimizda ayollar va bolalarning turli zo’ravonliklarga uchrayotgani buyuk tarix, yuksak ma’naviyat va ma’rifatga ega bo’lgan, oilani muqaddas deb biladigan xalqimizga aslo yarashmaydi.

So’nggi ikki yilda ayollar va bolalarga nisbatan oilaviy zo’ravonlik holatlari bo’yicha 2 mingdan ziyod jinoyat aniqlangan.

Hech qachon unutmaylik, oilaviy zo’ravonlik – bu faqat oilaning ichki ishi emas, bu – butun jamiyatga tegishli masala. Ayolni o’z muammosi bilan yolg’iz tashlab qo’yishga hech kimning haqqi yo’q!

Ayollar va bolalarga nisbatan zo’ravonlikning oldini olish bo’yicha respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi barcha davlat idorolari va keng jamoatchilikni safarbar qilgan holda bunday salbiy holatlarga barham berish bo’yicha samarali ishlaydigan tizim yaratsin.

Parlamentimiz, fuqarolik jamiyati institutlari ham bu jarayonlarda faol ishtirok etsa, albatta natija bo’ladi.

Takror va takror aytaman: korrupsiya – davlat taraqqiyotiga to’siq bo’ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan, jamiyatda ishonch muhitini zaiflashtiradigan eng jiddiy tahdid.

Korrupsiyaga yo’l qo’yish esa islohotlarimizga xiyonatdir. Bu illatga qarshi kurashish bo’yicha 2026-yilda “favqulodda holat” e’lon qilamiz.

Barcha idoralarda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratga mas’ul o’rinbosar lavozimi joriy etiladi. Hisob palatasining vakili faoliyati yo’lga qo’yiladi. Ushbu rahbarlar tizimdagis nopok shaxslarni aniqlash, shuningdek byudjet mablag’i talon-toroj bo’lishi va mansabni suiiste’mol qilish holatlarining oldini olish bo’yicha ta’sirchan nazorat o’rnatadi va Prezident oldida hisobot beradi.

Davlatning har bir so’m mablag’i, resursi bo’yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytiriladi.

“Lavozimim, unvonim bor, menga hech kim tegmaydi”, deganlar adashadi. Qonun oldida hamma teng!

Ichki ishlar, prokuratura, soliq, bojxona, moliya, bank, yirik davlat kompaniyalari, vazirlik va hokimliklar, bir so’z bilan aytganda, birorta idora va tashkilot nazoratdan chetda qolmaydi.

Komplayens xizmatining faoliyatiga to’squinlik qilganlar korrupsiyaga sherik deb baholanadi va javobgarlik shunga mos holda bo’ladi.

Prezident Administratsiyasi Komplayens xizmati bu tizimni 1-yanvardan boshlab barcha davlat idorolari va tashkilotlarida ishga tushirib, jilovni mahkam qo’lga olsin.

Mansabidan qat’i nazar, poraxo’rlik va suiiste’molchilik

bo’yicha har bir holat yuzasidan Prezident Administratsiyasi Komplayens xizmati shaxsan menga axborot kiritib boradi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Jahonda murakkab geosiyosiy va iqtisodiy muammolar tobora avj olib bormoqda. Bunday murakkab vaziyatda barcha davlatlar bilan teng huquqli va konstruktiv munosabatlarni yanada mustahkamlash, vazmin va oqilona ochiq tashqi siyosat olib borishga qaratilgan faoliyatimizni davom ettiramiz.

Yaqin qo’shnilarimiz bilan ko’p asrlik do’stlik, yaxshi qo’shnicilik, strategik sheriklik va o’zaro ishonch ruhida aloqalarimizni yanada rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratamiz. Bunda mintaqamiz davlatlari o’rtasidagi savdo-iqtisodiy, transport-logistika, energetika, suv, ekologiya, xavfsizlik, madaniyat va ta’lim sohalarida hamkorlikni yanada chuqurlashtiramiz.

Afg’oniston bilan savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, uni mintaqadagi iqtisodiy jarayonlarga keng jalb qilish asosiy maqsadlarimizdan biri bo’lib qoladi.

Asosiy xorijiy sheriklarimiz hisoblangan Rossiya, Xitoy, Amerika Qo’shma Shtatlari, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Qatar, Iordaniya, Kuvayt, O’mon, Hindiston, Pokiston va boshqa davlatlar bilan ko’p qirrali va o’zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytirish bundan buyon ham e’tiborimiz markazida bo’ladi.

Shuningdek, Janubi-Sharqiy Osiyo, Yaqin Sharq, Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan yangi va istiqbolli yo’nalishlarda manfaatli hamkorlikni mustahkamlash, Janubiy Kavkaz va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarni kengaytirish strategik yo’nalishlarimizdan biri bo’ladi.

Fursatdan foydalanib, bugungi anjumanimizda qatnashayotgan xorijiy davlatlarning muhtaram elchilariga qarata aytmoqchiman: biz bilan aloqalarni kengaytirib, O’zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lishini faol qo’llab-quvvatlayotgani uchun mamlakatlaringiz hukumatlariga alohida tashakkur bildiraman.

Nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, iqtisodiy institutlar bilan yaqin hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqamiz.

Xalqaro valyuta jamg’armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki va boshqa yetakchi moliya institutlari bilan hamkorlikda iqtisodiyotimizni texnologik modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish, barqaror energetika va transport loyihalarini amalga oshirish borasidagi ishlarni davom ettiramiz.

Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti doirasida an’anaviy, keng qamrovli sheriklik aloqalarini yanada kengaytiramiz.

Bunday ulug’vor vazifalar bizdan yurtimizda tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo do’stlik va ahillikni yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimizning jangovar

salohiyatini oshirishni talab etadi. Buning uchun biz barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshiramiz.

Aziz vatandoshlarim!

Bugun sizlar bilan 2026-yil va kelgusi besh yil uchun katta marralarni belgilab oldik.

Erishilgan ulkan natijalar, yangi ustuvor vazifalar “O’zbekiston – 2030” strategiyasini qayta ko’rib chiqishni taqozo etmoqda. Yurtimizning kelgusi besh yillik taraqqiyotiga daxldor bo’lgan ushbu hujjat keng jamoatchilik muhokamasidan o’tkazilib, aholimizning fikr-mulohazalari asosida takomillashtiriladi. Parlament vakillarini ham bu jarayonda o’z takliflari bilan faol ishtirok etishga chaqiraman.

Kelgusi yilda ma’naviyat sohasini yanada rivojlantirib, ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi muhim sanalarni keng nishonlaymiz. Jumladan, barcha yutuq va g’alabalarimizning poydevori bo’lgan Vatanimiz mustaqilligining shonli 35 yilligini katta bayram sifatida o’tkazamiz.

Shuningdek, Sohibqiron Amir Temur, Mir Alisher Navoiy bobolarimizning qutlug’ tavallud ayyomlariga tayyorgarlikni hozirdan boshlashimiz kerak. Bunday ulug’ sanalarni yuksak darajada, har tomonlama munosib o’tkazish uchun albatta tegishli qarorlarni qabul qilamiz. Ularni amalga oshirishda mahallalar, ta’lim-tarbiya maskanlari, mehnat jamoalari, ziyolilarimiz, xorijdagi elchixonalarimiz, umuman, butun xalqimiz faol ishtirok etadi deb ishonaman.

Qadrli va muhtaram yurtdoshlar!

Bugun sizlarga, sizlar orqali butun el-yurtimizga murojaat qilib aytmoqchiman: bugun tarixning o’zi, hayotning o’zi zimmamizga buyuk bir mas’uliyatni yuklamoqda.

Jonajon Vatanimiz bugun yangicha siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, ma’naviy munosabatlar asosida yashab, mehnat qilayotgan, mustaqil fikrlaydigan, ozod va erkin insonlar diyoriga aylanmoqda.

Hammamizga ayonki, Mirzo Ulug’bek bobomiz bundan olti asr muqaddam insoniyat uchun yulduzlar xaritasini yaratgan edi. Bugun esa biz hozirgi va kelajak avlodlarimiz uchun baxtli hayotga olib boradigan yo’l xaritasini yaratishimiz lozim.

Mana shu haqiqatni chuqur his etib, barchamiz birlashib harakat qilsak, har qanday yuksak marrani zabt etishga qodirmiz, biron-bir kuch bizni o’z yo’limizdan qaytara olmaydi.

Bir bo’lsak, yagona xalq, yagona millat bo’lib olg’a intilsak, ko’zlagan ulkan maqsadlarimizga albatta yetamiz!

Men bu yo’lda mard va oliyjanob xalqimizga ishonaman!

O’zbekistonning beqiyos kuchi va imkoniyatlariga, aziz yoshlarimizning azm-u shijoatiga ishonaman!

Fursatdan foydalanib, el-yurt manfaati, Vatan taqdirini o’ylab, muqaddas zaminimizning asl farzandlari, fidoyi posbonlari bo’lib, o’zini ayamasdan, sidqidildan mehnat qilayotgan siz, azizlarga, bunyodkor xalqimizga chin dildan minnatdorlik bildiraman.

Barchangizga mustahkam salomatlik, oilaviy baxt-saodat, yangi yilda ulkan yutuq va omadlar tilayman.

MUROJAATNOMADA INSON QADRI, TA'LIM VA MUDOFAA SALOHİYATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasi har bir soha vakili kabi biz – Vatan himoyachilari uchun ham nafaqat hisobot, balki yaqin kelajakning aniq "Yo'l xaritasi"ga aylandi. Harbiy ta'limga aloqador shaxs sifatida ushbu tarixiy hujjatni o'qir ekanman, unda belgilangan vazifalar mamlakatimiz taraqqiyoti bilan birga mudofaa salohiyatini yangi sifat bosqichiga olib chiqishda asosiy dastur bo'lishiga amin bo'ldim.

IQTISODIY BARQARORLIK – ARMIYA RIVOJINING ASOSI

O'tgan yil yakunlari bo'yicha iqtisodiyotimiz tarixda ilk bor 145 milliard dollarlik marrani zabt etib, davlatimiz byudjeti mustahkamlangani – Qurolli Kuchlarimizni modernizatsiya qilish, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda ta'lim muassasalarini eng zamonaviy o'quv-moddiy bazalari, qurol-yarog' bilan ta'minlash va o'qitishning yangi texnologiyalari joriy etish uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Merganlarni tayyorlash markazi uchun o'tgan yilda turli xil turdagi zamonaviy anjom-aslahalar sotib olinib, mutaxassislarni o'qitish va samarali foydalanish uchun topshirildi. Shu bilan bir qatorda, markazda mavjud mehmonxonalar (*xorijiy mutaxassislar uchun mo'ljallangan*) qayta ta'mirlanib, zarur barcha sharoitlar yaratilgan holda shinam ko'rinishga keldi. Natijada ushbu o'quv markazida tahsil olishning jozibadorligi oshib, yildan yilga xorijiy mutaxassislarning markazda tahsil olishiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

TA'LIM DASTURIDA YANGI TEXNOLOGIYALAR VA IMKONIYATLAR

Murojaatnomada belgilangan 6 ta ustuvor yo'nalish oliy harbiy ta'lim muassasalari va o'quv markazlari faoliyatiga ham to'g'ridan to'g'ri daxldordir. Xususan, Murojaatnomada texnikumlarning tubdan yangilanishi va dual ta'lim tizimiga asoslangan xalqaro dasturlarning joriy etilishi belgilandi. Mudofaa vazirligi oliy harbiy ta'lim faoliyatida ham ushbu dual ta'lim



tizimini qo'llash nafaqat professional harbiy kadrlarni tayyorlashda yangi yondashuv bo'ladi, balki o'rganilgan nazariy bilimlarni o'qish davrining o'zidayoq amaliyotda qo'llash uchun qulay imkoniyat tug'iladi. Kelgusi yillarda harbiy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan bunday islohotlar harbiy mashg'ulotlar "raqamli poligoni"ni vujudga keltirib, katta hayotga qadam qo'yayotgan yosh ofitserlarni boshqaruvda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish, shaxsiy tarkibning imkoniyatlaridan kelib chiqib, samarali boshqarish kabi komandir ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Murojaatnomada tilga olingan davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi harbiy ta'limni ham chetlab o'tmaydi. Ayniqsa, o'quv jarayonlariga sun'iy intellekt elementlarini kiritish orqali harbiy xizmatchilar tayyorgarligini baholashda inson omilini keskin qisqartirish, harbiy ta'limga raqamlashtirishni keng joriy qilish

orqali byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda zamonaviy simulyatorlar yordamida jangovar vazifalarni modellashtirish kelgusi yilda Qurolli Kuchlarimizning barcha ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifa bo'ladi. Ishonchim komilki, bunday yangi dasturlarni joriy qilish nafaqat professional milliy kadrlar zaxirasini shakllantiradi, shu bilan bir qatorda, xalqaro standartlarga mos fikrlaydigan, muhim amaliy ko'nikmalarni o'zida shakllantirgan har

tomonlama salohiyatli harbiy kadrlar yetishib chiqa boshlaydi.

Bundan tashqari, qator xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan imzolangan strategik kelishuvlar harbiy ta'lim tizimiga dunyoning eng ilg'or o'quv metodikalarini olib kirish imkonini beradi. O'quv markazlarida tahsil olayotgan tinglovchilar xalqaro harbiy almashinuv dasturlarida ishtirok etishi va xorijiy tillarni o'zlashtirishi imkoniyati tug'iladi. Bu esa eng zamonaviy maxsus harbiy anjomlar imkoniyatlarini to'g'ridan to'g'ri o'rganish, uchuvchisiz uchish apparatlari (UUA) muhandisligini o'zlashtirish va sun'iy intellektga asoslangan taktik harakatlar simulyatorlarida tayyorgarlikdan o'tish imkonini beradi. Bularning barchasi, shubhasiz, bugungi kundagi "jahon talablariga mos harbiy kadrlar" tayyorlashning asosiy shartidir. Xalqaro maydondagi muloqotlar harbiy ta'lim uchun tajriba maktabi bo'lishidan tashqari, mutaxassislarni jahon harbiy texnologiyalar maydonining faol

ishtirokchisiga aylantiradi. Bu esa ta'lim maskanlarida o'qitilayotgan harbiy xizmatchilarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni nafaqat jangchi-askar, balki intellektual yetuk harbiy mutaxassis sifatida shakllantiradi.

TARAQQIYOT, XAVFSIZLIK VA BOSHQARUV

2025-yilda erishilgan tarixiy iqtisodiy o'sish va mustahkam moliyaviy zaxira Yangi O'zbekiston armiyasini modernizatsiya qilish hamda harbiy ta'limda sifat o'zgarishlarini kiritish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu iqtisodiy qudrat 2026-yilda dual ta'lim, sun'iy intellekt va raqamli poligonlar orqali amalga oshiriladigan intellektual hamda texnologik o'qitish dasturiga transformatsiya qilinib, natijada nafaqat jismoniy kuchga, balki yuksak texnologik bilimlarga tayanadigan, dunyo andazalariga mos harbiy kadrlar korpusini shakllantiradi. Bu kabi moddiy va intellektual salohiyatning o'zaro uyg'unligi mamlakatimiz mudofaa qudratini yangi bosqichga ko'tarib, sarhadlarimiz daxlsizligi hamda xalqimizning tinch va farovon hayoti uchun eng ishonchli va mutlaq kafolat bo'lib qoladi.

Prezidentimizning Murojaatnomasi – "Inson qadri uchun" g'oyasini amaliy raqamlar va huquqiy mexanizmlarga aylantirgan hujjat bo'ldi. Biz, bo'lajak boshqaruvchilar uchun davlatimiz rahbari tashabbuslari va qo'ygan vazifalari hamda maqsadlar kelgusida davlat boshqaruvida resurslardan oqilona foydalanish, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik, raqamli va "yashil" texnologiyalarni tatbiq etish talabini qo'yadi. Va ishonamanki, ularning samarali amalga oshirilishi O'zbekistonni 2030-yilga qadar nafaqat mintaqada yetakchi, balki global miqyosda raqobatbardosh, ijtimoiy adolatli va texnologik jihatdan rivojlangan davlatga aylantirishga xizmat qiladi.

Mayor Shahboz ESHONQULOV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Davlat
siyosati va boshqaruvi
akademiyasining tinglovchisi



Islahotlar amalda

MILLIY ARMIYA

Tinchlik va osoyishtalik, xalqimizning xavfsizligini ta'minlash vazifasi Yangi O'zbekistonni barpo etishning bosh talablaridan biri. Shu bois Qurolli Kuchlarimizni yanada rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli va uzoqqa mo'ljallangan islohotlar olib borilmoqda. Albatta, bu o'rinda mamlakatimiz suvereniteti, chegaralarimiz daxlsizligining mustahkam qalqoni hisoblangan milliy armiyamizda amalga oshayotgan yangilanish va o'zgarishlar e'tirofga loyiq.

Shu bois ham Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni mudofaa va xavfsizlik sohasiga doimiy e'tibor qaratib kelmoqda. Chunki bugungi murakkab davr, jahonda kuzatilayotgan turli harbiy-siyosiy vaziyat har qaysi davlat oldiga xavf-xatarlarga qarshi tura oladigan qudratli, professional armiyaga ega bo'lish talablarini qo'yimoqda.

Armiya qachon qudratli bo'ladi? Qachonki, islohotlar o'rinli va uzviy olib borilsa, shaxsiy tarkib uchun sharoitlar va qulayliklar yaratib berilsa. Demak, bu muhim omil ekan, har qaysi davlat ayni jihatga e'tibor qaratishi zarur.

– So'nggi yillarda milliy armiyamiz qiyofasi tubdan o'zgarib, uning jangovar shayligi va salohiyati sezilarli darajaga oshdi, – deydi podpolkovnik Sadridin Qodirov. – Davlatimiz rahbari ko'rsatmasiga asosan, Qurolli Kuchlarni qo'llash, ularning

jangovar shayligini takomillashtirish bo'yicha bir qator normativ-huquqiy hujjatlar yangitdan ishlab chiqildi. Bo'linmalarining jangovar shaylik darajasi optimallashtirildi. Shaxsiy tarkibning vazifalarni bajarish vaqt ko'rsatkichlari sezilarli qisqartirildi. Misol uchun, 2025-yilning o'zida 10 ga yaqin rivojlangan xorijiy armiya bilan hamkorlikdagi taktik, mintaqaviy, kompyuter qo'mondonlik-shtab o'quvlari o'tkazildi. Ilg'or xorij armiyalarining jangovar shaylik tizimini takomillashtirish tajribalari chuqur o'rganildi. Buning natijasida qo'shinlarimizning jangovar salohiyati, topshiriqlarni ado etish borasidagi harakatlari bir necha baravarga oshirildi.

Darhaqiqat, Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni boshchiligidagi mamlakatimizda mudofaa va xavfsizlik sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirib kelinyapti. Xususan, milliy armiyamizda alohida o'rin tutuvchi Mudofaa vazirligi tizimida ham so'nggi 9 yilda juda katta o'zgarishlar

olib borildi va bu yangilanishlar yuqori suratlarda davom ettirilmoqda.

Bilasiz, kishi egallagan kasbining shunchaki ustasi bo'lolmaydi. Chunki muvaffaqiyat istakning o'zi bilan qo'lga kiritilmaydi. Bu yo'l iroda va qat'iyatni talab etadi. Yurt o'g'lonlari esa ana shu hayotiy haqiqatni allaqachon anglagan. Shuning uchun ham ular tinmay shug'ullanadi. O'quvlarda ishtirok etib, zamonaviy bilimlarni yanada chuqurroq egallaydi. Mudofaa vazirligiga qarashli dala-o'quv maydonlari va tayyorlov bazalarida muntazam o'quv kurslari va amaliy mashg'ulotlar olib boriladi. Bu, albatta, egniga harbiy libos kiygan azamatlarning kasbiy bilimlari, ko'nikma va tajribalari yanada ortishiga xizmat qilmoqda.

– 2018-yil 9-yanvarda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Mudofaa doktrinasini to'g'risidagi qonun qabul qilindi, – deydi podpolkovnik G'ulomnazor Nasriddinov. – Bu zamonaviy dunyoga yangicha qarashlar, yangi maqsadlar bilan qadam qo'yayotgan O'zbekistonning harbiy siyosati va strategiyasini belgilovchi muhim hujjat bo'ldi. Bundan tashqari, yana qator qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari qabul qilindi. Bularning barchasi mudofaa sohasini isloh qilish va rivojlantirish, jangovar tayyorgarlik jarayonlarini tashkil qilishda konseptual asos bo'lib xizmat qilmoqda. Amaliyotga



ONA YURT QALQON!, TINCHLIGIMIZ POSBONI!



joriy etilayotgan usul va uslublar harbiy xizmatchilarning kasbiy darajalarini yanada oshirish, yuklatilgan vazifalarni tezkor bajarish imkonini ham beryapti.

Tan olib aytish kerakki, jangovar shaylik avvalgi yillarga nisbatan qariyb 2–2,5 baravar ortdi. Bundan tashqari, amaliy mashg'ulotlarning 70 foizi poligonlarda – amaliy jihatdan olib borilmoqda. Ahamiyatlisi, shaxsiy tarkib ishtirokidagi o'quvlarning 50 foizi tunda, ya'ni ko'rish mutlaqo cheklangan bir sharoitda o'tkazilyapti.

Ha, bugun zamonaviy janglarda asosan yangi taktik usul va uslublarni qo'llash muhim. Shu bois Mudofaa vazirligi qo'shinlarining tayyorgarlik darajasini oshirishga mo'ljallangan va o'z ichiga yangi taktik usul va uslublarni oluvchi 20 ga yaqin strategik, operativ taktik darajadagi muhim rahbariy hujjat ishlab chiqildi. Asosiy e'tibor, yangi taktik harakatlar asosida bo'linmalar, kichik guruhlar tarkibida vazifalarni bajarish,

uchuvchisiz uchish apparatlarini qo'llash va ularga qarshi kurashish, niqoblanish, zamonaviy vositalar yordamida jang maydonini razvedka qilish, shahar va tog' sharoitida, jangovar harakatlar olib borish, jang maydonida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, jangovar va muhandislik ta'minotini tashkillashtirish usullarini o'zlashtirishga qaratilmoqda. Shuningdek, qo'shilma va bo'linmalar tomonidan taktik-

o'quvlarga katta e'tibor berilyapti. Jangovar tayyorgarlik dasturlari yangicha yondashuv bilan tayyorlangan 11 ta modul tizimida ishlab chiqildi. Bu 7 ta zamonaviy jang turi, 2 ta tayyorgarlik kursi,

kasbiy va aralash mutaxassislik tayyorgarligini qamrab oladi.

Gapning indallosini aytganda, dala-o'quv maydoniga chiqib, aksar hollarda nomukammal amaliyot bajargan askar hozirda amaliy mashg'ulotlarni yetarli darajada o'tamoqda. Qisqasi, bu kechagi armiya emas. Haqiqatan, bugun bu iborani bemalol aytishga haqlimiz. Boisi qo'shinlarda olib borilayotgan mashg'ulotlar jahonda va mintaqada kuzatilayotgan harbiy harakatlar xususiyatidan kelib chiqqan holda aniq savollarga aniq javoblar topish asosida o'tkaziladi. Shuning uchun ham milliy armiyamiz qiyofasi tubdan o'zgardi. Saflardagi harbiy xizmatchilar professional kadr o'laroq, yuklatilgan vazifalarni bajarib kelmoqda.

Zotan, Vatan – inson uchun aziz va bebaho ne'mat. U tariximiz, madaniyatimiz va kelajagimiz bilan bog'lovchi muhim ko'priq. Shunday ekan, har birimiz qaysi soha vakili bo'lishimizdan qat'i nazar, yurtimizning tinchligi va rivoji uchun mas'ulmiz.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”



Kecha va bugun

YUZAKILIKKA TO'SIQ QO'YISH

Mudofaa ishlari vazirligining jangovar, chaqiriqqacha tayyorgarlik va oliy o'quv yurtlari boshqarmasining jangovar tayyorgarlik bo'limi boshlig'i podpolkovnik B. Soliyev bilan suhbat.

“Vatanparvar”ning 148–149-soni, 1992-yil 1-iyul, kapitan Y. SHALNEV suhbatlashgan.



YAQIN TARIX SUHBATLARI

1992-yili “Vatanparvar” gazetasining 148–149-sonlarida chop etilgan ushbu suhbat mustaqil O'zbekiston Qurolli Kuchlari endigina shakllanayotgan, kelajak yo'li hali aniq bo'lmagan murakkab va mas'uliyatli bir davr ruhini aks ettiradi. Unda jangovar tayyorgarlik, harbiy an'analar, ko'zbo'yamachilikka qarshi kurash va haqiqiy professional armiyani barpo etish haqidagi fikrlar bayon etilgan. Bugun O'zbekiston armiyasi mustahkam qudratga, harbiy qurilish sohasida o'z yo'liga ega bo'lgan bir paytda, bu maqolani qayta o'qish ahamiyatli. U bizga Qurolli Kuchlar qanday sharoitda vujudga kelganini, ofitser va askarlar oldida qanday savollar turganini, eng muhimi – poydevor qanday g'oyalar ustiga qurilganini yodga soladi.

– O'rtoq podpolkovnik, sizning bo'limingiz qanday vazifalarni bajaradi?

– Biz boshqarmadagi yetakchi bo'lim ekanimiz sababli juda ko'p vazifalar yuklangan, jumladan jangovar tayyorgarlik, hisob-kitob, tayyorgarlik natijalarini tahlil qilish, taktik va o't ochish tayyorgarligi, qismlarning saf ko'nikmalari, shuningdek kichik mutaxassislarni tayyorlash uchun mas'ulmiz.

– Jangovar tayyorgarlikni rejalashtirish, uning natijalarini tahlil qilish uchun javob beramiz, deyapsiz. Ammo nahotki, hali ko'p narsalar aniq bo'lmagan hozirgi tushunarsiz bir davrda jangovar tayyorgarlikning mavjudligi to'g'risida jiddiy gapirish mumkin bo'lsa? Balki, siz buni shunchaki aytayotgandirsiz?

– Chindan ham qishki o'quv davrida Turkiston harbiy okrugining tugatilishi va O'zbekiston Qurolli Kuchlarining tashkil etilishi jarayonida jangovar tayyorgarlik masalalari bilan qisman shug'ullandik, asosan Termiz garnizonida.

Faqat yakka holdagi tayyorgarlik bilan shug'ullandik. Bo'linmalar tarkibi bilan mashg'ulotlar umuman o'tkazilmadi. Yashirib nima qilaman, TurkVOda xizmat qilayotgan barcha ofitserlar holati tushunarsiz, hech kim kelajagi qanday bo'lishini, xizmatni qayerda o'tashini bilmasdi. Shu sababli ham jangovar tayyorgarlikka bo'lgan munosabat shunga mos ravishda bo'ldi. Yozgi o'quv davriga kelib, bunday yondashuvlar o'zgaradi.

– Bu yerdan ketayotgan ba'zi ofitserlar O'zbekiston chinakam Qurolli Kuchlarni tashkil eta olmaydi, chunki unda na an'analar, na tajriba bor degan o'yda. Ular O'zbekistonda juda bo'lmaganda “yuzaki” qo'shinlar tashkil etiladi, ularda ajoyib oshpazlar, front orti xizmatchilari bo'ladi, ammo jangovar tayyorgarlik zamon talablariga hech qachon javob bera olmaydi, deb o'ylashadi.

– “Yuzaki” armiya masalasida siz bilan bahslashishimiz mumkin. Ammo O'zbekiston o'z Qurolli Kuchlarini tashkil etyapti degani, unda faqat o'zbeklar xizmat qiladi, degani emas. Bizning davlatimiz ko'pmillatli, armiyamizda ham turli millatga mansub ofitser va askarlar xizmat qiladi. Sizga kim aytdi, bizda harbiy an'analar yo'q deb? Nega buyuk sohibqiron Amir Temurni doim yoddan chiqarishadi, axir u ko'plab davlatlarni bo'ysundirgan-ku, nega general Sobir Rahimovni eslashmaydi? Bizda bunday insonlar juda ko'p. Masalan, Sovet Ittifoqi Qahramoni gvardiya polkovniki Xodjayev.

Tariximiz ham bor. Faqatgina biz uni yodga olishimiz va kelajak avlodlarni tariximizdagi eng yaxshi an'analar va shunga munosib ravishda tarbiyalashimiz kerak.

– A. Kuprinning asarlaridan birida yakuniy mashg'ulotlar vaqtida askarlar o'rniga unter ofitserlar maydonga chiqib, nishonlarni urgani va ularni askarlar urdi, deb o'z bo'linmalari natijalarini yaxshilashga harakat qilgani tasvirlari bor. Rus armiyasida yuzaga kelgan bunday an'analar sovet armiyasida ham davom ettirildi. Aqlli operator o'q otish poligonida o'zi uchun kerakli natijani ta'minlay olishi hech kimga sir bo'lmagan. Siz O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida bunday holat bo'lmasiligiga ishona olasizmi?

– Buni amalga oshirish uchun, albatta, jangovar tayyorgarlik bilan jiddiy shug'ullanish lozim. Qo'shinlarimizga yuklangan ortiqcha vazifalarni, ya'ni xo'jalik usulidagi qurilishlar va boshqa mayda-chuyda ishlarni yo'q qilish kerak. Askar armiyada duradgor, beton qorishni emas, balki haqiqiy harbiy mutaxassislikni o'rganishiga erishamiz. O'shandagina hech qanday ko'zbo'yamachiliklar bo'lmaydi.

Ha, qurilish ham kerak. Bundan chetda qololmaymiz, ammo menimcha, biz, birinchi navbatda, askarlarga tegishli harbiy mutaxassisliklarni o'rganishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishimiz shart. Vzvod komandiri, polk komandirining o'rinbosari vazifalarida faoliyat olib borganimda, shunga amin bo'lganmanki, o'quv bo'linmalaridan kelgan askarlar tankni ishga tushirish yoki stabilizatorni yoqishni ham eplolmaydi. Shu sababli ham ularni qaytadan o'qitishga to'g'ri kelgan.

– Xizmat lavozimi bo'yicha ko'tarilish uchun ofitserlar o'z bilimlarini oshirishlariga biron-bir rag'bat, istiqbol bo'ladimi?

– Albatta, bo'ladi. Armiyamizda eng yaxshi vzvod, rota komandiri, eng yaxshi o't ochuvchi singari yo'nalishlarda musobaqalar o'tkaziladi. Boshqacha bo'lishi mumkin emas. Hamma narsani o'z nomi bilan ataylik. Har bir ofitser karyerani, o'sishni xohlaydi, lavozimi oshishiga harakat qiladi, men buni yaxshi ma'noda aytapman. Birinchi – biz Vatanga xizmat qilyapmiz, ikkinchi – yuqori darajalarga erishish uchun xizmat qilyapmiz. Suvorov aytganidek, har bir askarning xaltasida marshal belgisi bo'ladi. Bularning barchasi, albatta, rag'batlantirib boriladi.

TAHRIRIYAT

Harbiy ta'lim

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan harbiy sohada amalga oshirilayotgan izchil va chuqur islohotlar mamlakat mudofaa tizimini zamonaviy tahdidlar va geosiyosiy voqeliklarga mos ravishda qayta shakllantirishga qaratildi.



Davlat rahbarining strategik yondashuvi asosida armiyani rivojlantirishda inson kapitali, bilim va texnologiya ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olindi. Ilgari asosiy e'tibor texnika va tashkiliy islohotlarga qaratilgan bo'lsa, bugun mamlakat mudofaa siyosati markaziga inson kapitali, ya'ni bilimli, fikrlaydigan va zamonaviy ofitser shaxsi qo'yildi. Aynan shu siyosiy iroda 2025-yilda harbiy ta'lim, kadrlar tayyorlash va boshqaruv tizimida tub burilish yasagan muhim qarorlar qabul qilinishiga zamin yaratdi.

Armiyada yangi fikrlash modeli

Jahondagi harbiy mojarolar tahlili shuni ko'rsatdiki, XXI asrda urush maydonida g'alabani qo'lga kiritish faqat qurol-aslaha bilan emas, balki tahlil qilish, tez qaror qabul qilish va texnologiyalardan unumli foydalanish bilan bog'liq. Shu bois O'zbekistonda harbiy kadrlarni tayyorlash tizimiga yondashuv tubdan o'zgardi.

2025-yilda qabul qilingan qarorlar asosida harbiy ta'lim klassik buyruqni bajaruvchi modeldan voz kechib, asosiy e'tibor mustaqil fikrlaydigan ofitserlarni tayyorlashga qaratildi. Bu esa harbiy xizmatni oddiy kasb emas, balki yuqori intellektual faoliyat darajasiga ko'tardi.

Harbiy ta'limda tub transformatsiya

2025-yili harbiy ta'lim tizimi uchun burilish nuqtasi bo'ldi. Qabul qilingan qarorlar asosida mamlakatda harbiy kadrlar tayyorlashning mutlaqo yangi milliy modeli shakllantirildi. Ilg'or davlatlar tajribasi chuqur tahlil qilinib, milliy sharoitga mos, samarali tizim yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining tashkil etilishi ushbu islohotlarning markaziy bo'g'iniga aylandi. Universitet tarkibidagi institutlar, fakultetlar, okrug o'quv tuzilmalari, serjantlar tayyorlash oliy

maktabi, hamda markazlar harbiy ta'limning yagona, uzluksiz va tizimli zanjirini shakllantirdi.

Ta'lim mazmunini optimallashtirish maqsadida kafedralar soni qisqartirilib, zamonaviy urushlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan IT, sun'iy intellekt, dronlar, kiberxavfsizlik va robototexnika kabi yo'nalishlar bo'yicha yangi kafedralar tashkil etildi. Bu esa harbiy ta'limni an'anaviy yondashuvlardan innovatsion platformalarga olib chiqdi.

Yangi tashkil etilgan Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti an'anaviy o'quv muassasasidan ko'ra, ko'proq strategik fikrlash maktabi sifatida shakllanmoqda.

50/50 tamoyili: ta'lim, amaliyot va innovatsiya

Zamonaviy geosiyosiy voqelik harbiy mutaxassisdan faqat nazariy bilim emas, balki amaliy tayyorgarlikni ham talab etadi. Shu nuqtayi nazardan 2025-yilda harbiy ta'limda 50/50 tamoyili asosida dual ta'lim tizimi joriy etildi. Kursantlar o'qish vaqtining yarmini qo'shinlarda o'tab, real xizmat sharoitida tajriba orttirmoqda. Shu bilan birga, 7 bosqichli uzluksiz tayyorlash va "2+2" modeli asosida tor ixtisoslikka yo'naltirilgan kadrlar tayyorlash amaliyoti joriy etildi. Oliy harbiy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga harbiy va fuqarolik yo'nalishidagi diplomlar berilishi esa ularning kasbiy imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar endilikda faqat akademik maqsadlarga emas, balki amaliy harbiy yechimlar yaratishga yo'naltirildi. Qurol-aslahani modernizatsiya qilish,

STRATEGIK TAFAKKUR MARKAZI



Surat tahririyat arxividan olindi



kibertahdidlarni aniqlash, avtonom tizimlarni joriy etish kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan ishlar armiyaning intellektual qudratini oshirmoqda.

Shu bilan birga, iqtidorli kursantlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash mexanizmi kuchaytirildi. Yuqori natija ko'rsatgan yoshlar uchun yaratilgan maxsus stipendiyalar harbiy xizmatda raqobat va intilish muhitini shakllantirdi.

Yangi avlod ofitserlari davri

2025-yilda O'zbekiston harbiy kadrlarining xorij davlatlarida ta'lim olishi va malakasini oshirish ko'lami sifat jihatdan yangi bosqichga chiqdi. Ilg'or xorij harbiy ta'lim muassasalarida o'zlashtirilgan bilim va tajribalar tizimli tarzda tahlil qilinib, milliy mudofaa tizimining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda amaliyotga joriy

etilmoqda. Mazkur jarayon, bir tomondan, O'zbekiston Qurolli Kuchlarini jahon harbiy standartlariga yaqinlashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, milliy manfaatlarga tayanadigan mustaqil, tanqidiy va pragmatik yondashuvni saqlab qolishni ta'minlamoqda.

Bugungi o'zbek ofitseri bu faqat buyruq bajaruvchi emas. U vaziyatni tahlil qila oladi, texnologiya bilan ishlaydi, jamoani boshqaradi va eng muhimi, Vatan xavfsizligi uchun shaxsiy javobgarlikni his qiladi.

2025-yili O'zbekiston armiyasi uchun yangi tafakkurli yangi avlod ofitserlari – harbiy kadrlar davri boshlangani bilan ahamiyatli bo'ldi. Inson kapitaliga qaratilgan bu strategik yo'l mamlakat mudofaa qobiliyatini nafaqat bugun, balki kelajakda ham mustahkamlaydi.

Furqat ERGASHEV,
"Vatanparvar"

Vatan surati



VATANPARVAR KIM?

Yulduzlarning suhbatiga quloq solganmisiz? Sokin esayotgan shamolning kuyiga-chi? Barglar shitiri, yomg'ir ovoziga mahliyo tuproqning raqsini ko'rdingizmi? Maysaning tebranishida o'ynayotgan oyning kokillarini-chi? Rangi unniqqan yoshlik albomida termilib turgan bolakay nigohida qanday xotiralar yuz ochmoqda. Qariyalarning tuproq isi anqib turgan chehrasida ne dard-u armonlar bor. Hammasi bir butun Vatanning suratini chizmaydimi?

VATAN NIMA? Vatan qayerdan boshlanadi, degan savolga ko'p duch kelganmiz. Vatan tug'ilib o'sgan, kindik qonimiz to'kilgan shu tuproqdir. Vatan ostonadan boshlanadi, qabilida javoblar ham bor. Bugun o'qirmanlar va o'zimning oldimga "Vatanparvar kim?" degan savolni qo'ymoqchiman. Rosti tadbir, marosimlar uchun yodlangan nutqlardan qochib, vatanparvarlik haqida ko'nglimda qanday so'zlar qad rostlasa, o'shalarni yozaman.

VATANPARVARLIK – bu inson qalbida yashaydigan eng oliy va muqaddas tuyg'ulardan biri. U shunchaki Vatanni sevish bilangina cheklanmaydi, balki o'z yurtining taqdiri, kelajagi va ravnaqi uchun mas'uliyatni chuqur his etish, unga sadoqat bilan xizmat qilishni anglatadi. Har bir millatning buyukligi, avvalo, uning vatanparvar farzandlari bilan belgilanadi.

Vatanparvarlikni bolalikdan boshlash kerak

Agar bolalar vatanparvar bo'lib ulg'aysa, kelajak mustahkam poydevorga ega bo'ladi. Chunki bugunning bolasi – ertangi jamiyat egasi, davlat tayanchi va millat davomchisi. Vatanparvarlik tuyg'usi bolaga yoshlikdan singdirilsa, u nafaqat o'z manfaatini, balki yurt manfaatini ham o'ylaydigan komil inson bo'lib yetishadi.

Vatanparvarlikni oiladan boshlash lozim. Ota-onaning Vatan haqidagi o'ylari, muhabbati, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashi, tilimizni e'zozlab so'zlashi bolaning ongida chuqur iz qoldiradi. Bola ko'rganini qiladi, eshitganini anglaydi. Vatanparvarlik majburlab emas, tushuntirib, sevdirib o'rgatilgandagina samara beradi. Agar bolalar vatanparvar bo'lib ulg'aysa, kelajakda yurtini sotmaydigan, adolatli, bilimli va mas'uliyatli avlod voyaga yetadi. Bunday bolalar yurt ravnaqi uchun xizmat qilishni sharaflaydi. Demak, bolalarga berilgan har bir to'g'ri tarbiya Vatanning ertangi kuni

uchun qo'yilgan mustahkam tamal toshidir.

Men vatanparvarmanmi?

Ko'pincha vatanparvarlik faqat jang maydonida namoyon bo'ladigan fazilat sifatida tasavvur qilinadi. Aslida esa u tinch hayotda ham har qadamda ko'zga tashlanadi. Ilm o'rganayotgan talaba, kasbini sidqidildan bajarayotgan ustoz, salohiyatli shifokor, hosil yig'ayotgan dehqon – barchasi o'z mehnati bilan Vatan ravnaqiga xizmat qilsa, bu ham vatanparvarlikning bir ko'rinishi. **Chunki yurt taraqqiyoti, avvalo, bilimli, mas'uliyatli va vijdonli insonlarga tayanadi. Endi o'zimizga oyna tutsak, biz qanchalik vatanparvarmiz?**

Yuqorida ta'kidlangan qaysi amallar bizning hayotimizda o'z o'rnini topgan? Masalan, men ijodkorman, yozayotgan she'rларim-u kuylayotgan ash'orlarim haq va haqiqat yo'lga nechog'li xizmat qilyapti? Yo'lda yotgan toshni olib tashlashga biror kimsani undadimi, mening yozgan qoralamalarim? Unday bo'lmasa, ko'krak kerganim xato. Undan ko'ra, dehqon bo'lib yer chopganim, ekin ekib, elning tandiriga to'rtta qora non undirganim ma'qul.

Vatanparvarlikning mangu timsoli

VATANGA XIZMAT, millatga fidoyilikni shaxslar misolida ham juda ko'p eshitganmiz, ko'rganmiz. Uzoqqa bormasdan, misol keltirsam, 2000-yili Sariosiyo voqealarida halok bo'lgan qahramon yigitlarimizning jasorati, vatanparvarligi tahsinga loyiq. Sarhadlarimizga olaqarash qilgan g'animlarni o'zining joni evaziga bo'lsa ham, tor-mor qilgan askarlarimizni beixtiyor vatanparvar demasdan, iloj yo'q. Vatanparvarlik tarix sahifalarida ko'plab buyuk shaxslar siymosida namoyon bo'lgan. Shunday insonlardan biri – Jaloliddin Manguberdi. U nafaqat mohir sarkarda, balki Vatanni jonidan ortiq sevgan, yurt ozodligi yo'lida umrini

fidokorona bag'ishlagan buyuk vatanparvar sifatida tarixda muhrlanib qolgan.

Jaloliddin Manguberdi uchun vatanparvarlik balandparvoz so'z emas, balki amaliy harakat edi. U jang maydonlarida jasorat ko'rsatib, safdoshlariga kuch bag'ishladi, xalqda umid uyg'otdi. Hatto mag'lubiyatli vaziyatlarda ham u ruhiy matonatini yo'qotmadi, kurashni davom ettirdi. Chunki uning uchun eng muhim narsa – yurt sha'ni va ozodligi edi.

Bugun Jaloliddindek jangchi vatanparvarlar soni minglarga, millionlarga aylangan. Guvohi bo'lganim, **Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat qilayotgan harbiylarning ko'zlarida shijoat, Vatanga bo'lgan muhabbati chaqnab turadi.** Ular Vatan uchun jon berish emas, dushman ko'zi bilan boqqan g'animlarning jonini olishga shay jangchilardir. Shu jumladan Shoirimiz Botirjon Ergashevning "Mendirman o'shal" she'ri yodimga tushdi.

**Vatan uchun ko'ksim tog',
qalqondir sha'nim,
Uni desa, shamolday uchqur
samanim,
Bor bo'lsam, chamanimdir,
o'lsam, kafanim,
Manguberdilik menga taqdiri
azal...**

**Kim yurtidan yovni quvsa,
mendirman o'sha.
Kim yurtiga sodiq tursa,
mendirman o'sha.**

Bu she'r ham yuqorida ta'kidlaganimiz Jaloliddin Manguberdining qanday inson ekani haqida so'zlaydi. Shu o'rinda **"Harbiy-vatanparvarlik nima?"** degan savolga javob berib o'tsam. **Harbiy-vatanparvarlik – bu askar va harbiy xizmatchining Vatanni himoya qilishdagi jonbozligi, sadoqati va fidoyiligi.** U faqat jang maydonida emas, balki tinchlik davrida ham intizom, mas'uliyat va doimiy tayyorgarlikda namoyon bo'ladi. Chunki yurt xavfsizligi har kuni, har lahzada himoyani talab etadi. Harbiy-vatanparvarlikning asosiy omillaridan biri qasamyoddur. Askar o'ziga, Vatanga, xalqiga bergan va'dasida sobit turishi, kerak bo'lsa, o'zining manfaatlaridan xalqning, davlatning manfaatini ustun qo'yimg'i lozimdir.

Jasorat va fidoyilik harbiy-vatanparvarlikning ajralmas qismidir. Xavfli vaziyatlarda ham qo'rqmasdan vazifani bajarish, zarur

bo'lsa, jon olib, jonini ayamasklik, vatanparvarlikning eng oliy ko'rinishidir.

Vatanparvarlik qanday boshlanadi?

VATANPARVARLIK – har bir inson qalbida bo'lishi kerak bo'lgan eng oliy tuyg'ulardan biri. Ammo bu tuyg'u birzumda paydo bo'lmaydi, u kichik qadamlardan, tarbiya va amallardan boshlanadi. Haqiqiy vatanparvar bo'lishning poydevori esa oilada, uyda va maktabda qo'yiladi.

Bola kichikligidan ota-onasini kuzatadi, ularning Vatan haqidagi munosabati va so'zlari uning ongida chuqur iz qoldiradi. Agar ota-ona Vatanni sevib, tilini, tarix va madaniyatini qadrlasa, bola ham o'sha tuyg'uni qalbiga singdiradi. Shu sababli vatanparvarlik, eng avvalo, oiladan boshlanadi, deyishimiz mumkin.

TIL – MILLATNING RUHI. Tilga hurmat ko'rsatgan inson o'z xalqini, tarixini va urf-odatlarini qadrlashni ham o'rganadi. Ona tilini o'rganish va to'g'ri ishlatish – vatanparvarlikning birinchi va muhim qadamlaridan biri.

Shunday qilib, vatanparvarlik yurakdan boshlanadi, tarbiya orqali shakllanadi va kundalik amallar bilan namoyon bo'ladi.


Har bir maysa, tosh-u tuproq, gullar, daraxtlar hammasi shu Vatan uchun o'z vazifasini bajarmoqda. Hech yulduzlarning suhbatiga quloq solganmisiz? Sokin esayotgan shamolning kuyiga-chi? Barglar shitiri, yomg'ir ovoziga mahliyo tuproqning raqsini ko'rdingizmi? Maysaning tebranishida o'ynayotgan oyning kokillarini-chi? Rangi unniqqan yoshlik albomida termilib turgan bolakay nigohida qanday xotiralar yuz ochmoqda. Qariyalarning tuproq isi anqib turgan chehrasida ne dard-u armonlar bor. **Hammasi bir butun Vatanning, vatanparvarlikning suratini chizmaydimi?**

Vatanparvarlikni ich-ichimizdan his qilishimiz kerak. U faqat yurakdagina o'z o'rnini topadi. **Shunday ekan, tabiatni asrang, farzandlarga to'g'ri tarbiya bering, Vatanni seving, qariyalarga yordam bering, xullas qo'lingizdan kelgan barcha yaxshi ishlarni qiling. Vatanparvarlikning boshlanishi aynan shunday yuz ko'rsatadi.**

**Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"**

Qahramonlar nomi barhayot

Ishxonam derazasidan olislarga termilaman. Xotiram qa'rida o'tmish va kelajak jonlanadi. Boshimizdan nellar o'tdi-yu, yana nellar kutib turibdi. Kelmagani uchun qayg'urishga ne hojat, o'tgani uchun ham deyman-u, lekin qancha gunohsiz to'kilgan qonlar, faryodlar-chi? O'n gulidan bir guli ochilmagan qahramon yigitlarning nigohi meni ta'qib etib yurgandek, go'yo. "Vatanparvar" birlashgan tahririyatida faoliyat olib borayotganimga ham bir yil to'ldi. Ko'p narsalardan bexabar yurgan yigit uchun bu dargoh yangi eshiklar ochdi, maydon berdi. Bu orada ko'plab maqolalar e'lon qildim, qahramon yigitlar hayoti bilan tanishdim. Shular orasida meni eng ta'sirlantirgani 2000-yili Sariosiyo voqealarida halok bo'lgan yigitlarning jasoratidir.



YELKASIDA YURT YUKINI KO'TARGAN ALPLAR

Elomon Otajonov, Sayyor Sadinov... Ular haqda bir nechta qoralamalar yozdim. Qayg'usiga sherik bo'ldim, yig'ladim. Ijodkorning qo'lidan bundan ortiq nima ham keladi, deysiz. Imkoni bo'lganda-ku, har biri uchun ko'ksingni dushman o'qiga tutib bersang, arziydi. Urush bitgandan keyin qahramonlik ne darkor degandek, endi bu gaplardan ne foyda. Bir bola voyaga yetib, kamol topmog'i uchun necha yillar sarf bo'ladi. Bu orada ota-onaning sochlariga qirov qo'nib, yuragi yarim bo'lib qolishi ham bor gap. **Vatan ham xuddi o'sha bolakayga o'xshaydi, uning ham yuksalib kamol topmog'ida ne-ne Sayyor, Elomondek yigitlar dushman o'qiga ko'ksini qalqon qilmagan deysiz.** Dunyo nimani bo'lisha olmaydi deyman, ba'zida. Bir burda non bilan to'yadigan qoringa butun bir borliqni sig'dirmoqchi bo'ladi. O'lponi esa insonning joni bilan to'lanadi.

Bugun – Vatan himoyachilari kuni arafasida o'sha jasur yigitlarni xotirlashni ixtiyor etdim.

Vatanimni yaxshi ko'raman!

"Shamolning mayin ifori yuzimga urilmoqda, osmonning ko'zlarini ko'rdim. Bolaligimda dalaga mol boqishga borganimda tabiat bilan ko'p suhbat qurardim. Qishlog'imiz etagida qalin terakzor bo'lib, qushlarning chug'urchug'uridan ko'nglim yorishardi. Onamning issiq kulchalari, uyimiz yoqasidan o'tgan ariq. **Otamning yelkasidagi ketmon, ukalarim, hammasi ko'zim oldidan birma-bir o'tmoqda, lahzada abadiyat bilan yuz ko'rishdim.** O'lim ko'lankasi yuzimga soya solib turibdi, dushmanlarimning oyoq tovushlarida titrayotgan qo'rquv ham shundoq quloqlarim tagida". Bu so'zlar Elomon Otajonovga tegishli.

Qo'limga qalam olib, Elomon haqida yozar ekanman, bu jasur yigit o'z nomi bilan dunyoga kelgan ekan, degan xayol o'tadi ko'nglimdan. Avval bunaqa ism eshitmaganman, agar kimdir o'z ismining yukini chinakam ko'tara olgan, desak, u, shaksiz, Elomon Otajonovdir.

Elomonning quloqlarimga pichirlayotgan so'zlari:

"Ko'ksimga tekkan o'qdan ko'zlarim oldi bir muddat qorong'ilashdi, hamma narsa ko'z o'ngimdan o'ta boshladi. Og'riqdan o'zimga keldim, baribir omon qolmayman. Mening yuragimni ezayotgan tuyg'u esa o'limdan ham og'ir edi. **Hozir jimgina o'limga bosh egсам-u, do'stlarimning boshiga ham mening kunim tushsa, bundan yomoni yo'q.** O'zimni tutdim, qo'limga qurolimni olmoqchi bo'ldim-u, ko'tarolmadim. Odam tirik ekan, hammasiga qodir dedim. Dushmanlar men tomonga yaqinlashib kelayotganini ko'rib turibman: soch-soqoli o'sgan, boshida sallasi, ko'zlarida insoniy tuyg'ulardan zarra ham yo'q. Ratsiyani oldim-u, ko'rganlarimni so'zlay boshladim. Ko'z o'ngim qorong'ilashib ketar, ikki olam orasida edim, go'yo. Yodimning bir burchida, ota-onam jonlanib turibdi. Ko'zim

yana ochilib, terrorchilar menga anchayin yaqin qolganiga guvoh bo'laman. Bor kuchimni to'plab, qurolimga yopishdim, endi holim barmoqlarimni qimirlatishga ham yetmasdi.

Otam, onamdand xabar ololmasligimni o'ylash hammasidan og'ir edi. Qaytaman, degan va'damni bajara olmaganim, ko'nglimni tilka pora qilmoqda. Ulardan xabar olib turing!

Vatanimni yaxshi ko'raman, Hammangizni yaxshi ko'raman. Mana, kuragimga yana o'qlar kelib tegdi. Osmo'ning ko'zlari mening ko'zlarim-la birlashib, oqlik aro singib ketmoqdaman".

Elomon mardlarcha jon berdi. Sariosiyo tog'lari, archazorlari, har giyoh, har maysa bu mard yigitning xunini olgisi kelgandek tuyulaveradi menga. Men ishonaman, bu Vatanning Elomonlari hali juda ko'p. Endi ular Vatan uchun jon berib emas, kezi kelganda, jon olib, Vatanga xizmat qilishadi.

Yuragimni tilka pora qilgan bunday qismat bitiklari shu elning mard yigitlarining Vatan tinchligi yo'lida boshdan kechirgan qahramonligidir.

Xuddi shunday qahramonlardan biri Sayyor Sadinov ham Sariosiyo voqealarida qahramonlarcha halok bo'lgan. Marhum harbiy xizmatchi leytenant Sayyor Sadinovning xonadoniga oilasini yo'qlash uchun yo'l olamiz. Ko'nglimdan o'tayotgan kechinmalar xayollarimni har tomonga sochib yuboradi. Ko'z oldimga jang maydoni, jang olib borayotgan Elomon-u Sayyorlar jonlanadi. Vatan uchun ko'ksini tog' tutayotgan qahramon yigitlar xayoli bilan Sayyor Sadinov xonadoniga qanday kelganimni bilmay qoldim. Bizni Roziya opa – Sayyor Sadinovning onalari kutib oldi. Xona to'rida turgan suratlarga termilaman, nigohlari o'tkir, so'zlari keskir yigit gavdalanadi. Suratlarida jon bordek, go'yo. **Haqiqiy jangchi, qo'llarida turgan qurol ham go'yo shunday pahlavonning panjalarida ekanidan mamnundek tuyuladi.** Yovqur jangchiya, deyman o'zimga o'zim. So'ng Roziya onaning gaplariga quloq tutaman.

"Bular mening Sayyorlarim"

– Maktabni tamomlagach, Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtiga o'qishga kirdi. Sirl yigit edi bolam, ishi haqida gap ochmasdi. Avvalboshda, harbiy bo'lishiga qarshilik qilganim uchun shunaqa qilsa kerak, deb o'ylaganman. Keyin tushunib yetdim, harbiy sirlarni o'zidan boshqaga ishonmas ekan, hatto menga ham. 1998- yoki 1999-yillar gazetada chop etilgan maqolalardan birida Sayyorimning "Jasorat" medali bilan taqdirlanganini ko'rib qoldim. Telefon qildim. "Sayyor, seni Prezidentimiz taqdirlabdi", deb sababini so'raganimda, yaxshi o'qiganim uchun, deb qo'ygandi. Hayron qolganman, o'qishda yaxshi o'qigani uchun ham medal berilarmikan, deb. Televizorda ko'rardim, halok bo'lganlarga, biror katta qahramonlik ko'rsatganlarga berishini.

Sayyorim 21 yoshida leytenant bo'lgan mard, jasur, shu bilan birga, mehribon yigit edi. Biror insonning ko'nglini qoldirmasdi, toza, sarishta yurardi, hammaning nazariga tushgandi. Kuchli edi, o'g'lim hech narsadan qo'rqmasdi, merganlikda uquvi ko'p edi. Qaysidir tanlovda merganlik bo'yicha bellashuvda qatnashib, birinchilikni olgan. Amerikaga ham borib keldi, beshta shtatida bo'lganman, deb aytib berardi. Sayyor Chirchiqda yashagan, o'sha yerda ko'p rasmlari, buyumlari bor. Portretlarini o'rtoqlari olib ketardi, esdalik uchun. Shunday qilib, o'g'lim qanday faoliyat yuritganini, qadr-qimmatini qanchalik ekanini o'shanda bildim. Ta'ziyada do'stlari guruh-guruh, batalyon-bataylon bo'lib keldi, shunda har biridan Sayyorimning qanaqa yigit ekanini bilganman. Ular aytardiki, u guruh komandiri bo'lgan paytlarda birovga sen shu yerdan o'tishing kerak demas edi, o'zini kunlik formasida avtomatni tepaga ko'tarib, suvdan o'tish kerakmi, botqoqlikdan o'tish kerakmi, o'zi ko'rsatardi, keyin qo'l ostidagilari ko'rib, uning orqasidan o'tar edi. **Kimdan eshitsangiz ham, kimdan so'rasangiz ham, Sayyorim haqida yonib gapiradi.**

Men jim albomlardagi suratlariga termilaman va bexos albom orasida uncha eski bo'lmagan bolalar suratiga ko'zim tushadi.

– Bular mening Sayyorlarim, – deydi Roziya ona. – Xonadonimizga yo'qlab keladigan do'stlari, harbiylarning Sayyor haqida faxrlanib gapirishlari, uning mardligi, jasoratini qayta-qayta aytishlaridan ko'nglim taskin topadi. O'sha paytlarda ko'pchilik menga qo'ng'iroq qilib yoki uchrashganda "O'g'limga Sayyor deb ism qo'ymoqchiman", derdi. Ularning bu gaplaridan xursand bo'lardim. **Sayyorlarning sog'lig'i, o'qishlaridan xabar olib turardim. Suratlarini yuborishini so'rab, farzandlarim bilan faxrlanib o'tiraman.** Hozirda Sayyor ismli yigirmadan ortiq bolani bilaman, ularning ayrimlari katta yigit bo'lib qolgan. O'zim ham nabiralarimdan biriga shu ismni qo'rganman. Chirchiqqa yo'lim tushganida o'g'limning do'stining xonadonida mehmon bo'ldim. "Ayajon, do'stimning xotirasi doim dilimda, ismi ham tilimdan tushmasin, deb nabirangizga do'stimning ismini qo'rganman, nasib qilsa, uylantirsam, o'zingiz bosh-qosh bo'lasiz!" deydi bolamning do'sti. Bulardan boshim osmonga yetguday xursand bo'laman. Shunday farzand tarbiya qilganimdan g'ururlanaman. Bolamning qolgan umrini shu yigitlarga qo'shib berishini Xudodan so'rab, duo qilaman.

Suhbatni yakunlab qaytar ekanmiz, onaxonga qo'shilib bir sharpa ta'qib etgandek bo'ladi. O'ylayman, Sayyor Sadinovning ruhi doim onasining yonida, Vatan xizmatiga shay turibdi, deb. **Zotan, qahramonlar o'lmaydi. Ular doim yodimizda. Qaysidir mard yigitning hayotida qayta-qayta yuz ko'rsataveradi.**

**Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"**

Askar ota-onalarini sharaflaymiz!



MASOFA YO'QOLDI, QALBLAR YAQINLASHDI

Vatan tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar uchun ota-ona duosi, oilaning mehr-muhabbati eng katta ma'naviy tayanch hisoblanadi. Ana shu ulug' qadriyatlarni yanada mustahkamlash, harbiy xizmatchilar va ularning ota-onalari o'rtasidagi ma'naviy rishtalarni kuchaytirish maqsadida Shimoli-g'arbiy harbiy okrugning Nukus garnizonida joylashgan harbiy qismda muhim va samimiy tadbir – telemost shaklidagi uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda Nukus shahri hamda Samarqand viloyatida muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan yigitlar va ularning ota-onalari ishtirok etdi. Masofa va vaqt to'siqlariga qaramay, telemost orqali uyushtirilgan muloqot qalblarni birlashtirib, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi sog'inchi va mehrni yana bir bor namoyon etdi.

Uchrashuv davomida ota-onalar farzandlari bilan bevosita muloqot qilish, ularning xizmat sharoiti, kundalik mashg'ulotlari, yashash tartibi hamda sog'lig'i bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Harbiy qismdagi tartib-intizom, yaratilgan sharoitlar va harbiy xizmatchilarga qaratilgan e'tibor ota-onalarda katta mamnuniyat uyg'otdi. Ular o'g'illarining safdagi qat'iyligi, mas'uliyat hissi va xizmatga bo'lgan jiddiy munosabatini ko'rib, qalbida faxr tuyg'usini his etdi.

Suhbat jarayonida harbiy xizmatchilar ota-onalari bilan fikr almashib, harbiy hayot ularga hayotiy saboq, mustaqil qaror qabul qilish, intizom va jamoaviylikni o'rgatayotganini ta'kidladi. Shuningdek, ota-onalarining doimiy qo'llab-quvvatlashi, duolari va ezgu tilaklari xizmat yo'lida ularga kuch-g'ayrat, ishonch va bardamlik bag'ishlayotganini samimiyat bilan e'tirof etdi.

Tadbir davomida yangragan iliq so'zlar, samimiy tabassum va hayajonli lahzalar uchrashuvga alohida ruh bag'ishladi. Bu muloqot ota-onalar uchun farzandlarining harbiy xizmatni munosib o'tayotganiga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamladi, harbiy xizmatchilar uchun esa oila mehrini his etish, Vatan oldidagi burchini yanada mas'uliyat bilan ado etishga undagan kuchli ma'naviy rag'bat bo'ldi.

Tadbir yakunida farzandlarini Vatanga sadoqat, mardlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalab voyaga yetkazgan ota-onalarga minnatdorlik ramzi sifatida tashakkurnomalar topshirildi. Ushbu e'tirof ota-onalarning fidokorona mehnati, sabr-toqati va yuksak ma'naviy fazilatlariga bo'lgan chuqur hurmat ifodasi sifatida qabul qilindi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugning Nukus garnizonida o'tkazilgan telemost shaklidagi ushbu samimiy uchrashuv harbiy xizmatchilar va ularning ota-onalari o'rtasidagi ma'naviy aloqalarni yanada mustahkamladi. Bunday tadbirlar yoshlarning Vatanga bo'lgan sadoqatini kuchaytirish, ota-onalar ishonchini oshirish hamda jamiyatda harbiy xizmat nufuzini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Intellectual o'yin

BILIM VA HAMJIHATLIK SINOV

Respublikamizning eng olis hududlaridan biri hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iro't tumanida joylashgan harbiy qismda "Vatanparvarlik oyligi" doirasida "Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!" shiori ostida harbiy xizmatchilar o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini bo'lib o'tdi.

Qizg'in bahs va jonli savol-javoblar bilan o'tgan o'yinda yurt o'g'lonlari o'zlarining bilim saviyasi, tezkorlik va yetuk fikrlash qobiliyatini ko'rsatdi. Ular berilgan savollarga jiddiylik va tayyorlik bilan javob berib, nafaqat shaxsiy salohiyat, balki jamoaviy hamkorlik va strategik fikrlashni ham namoyon etishdi.

Tadbir yakunida faol ishtirok etgan jamoalar, shuningdek g'oliblar harbiy qism qo'mondonligi tomonidan diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

"Vatanparvarlik oyligi" doirasida o'tkazilayotgan bunday intellektual o'yinlar harbiy jamoalarda bilimga bo'lgan ehtiyojni rag'batlantirish, harbiy xizmatchilarni yanada faol, mas'uliyatli va tahliliy fikrlashga o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ularning ma'naviy rivoji va jipsligini mustahkamlashda, Vatanga sadoqatini yanada kuchaytirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, "Zakovat" intellektual o'yini nafaqat bilim va tajriba sinovi, balki harbiy jamoalar uchun hamjihatlik va ma'naviy rivojlanishni oshirish, harbiy xizmatchilarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini namoyon qilish uchun samarali tadbir bo'lib xizmat qildi.

TOQQQ matbuot xizmati



Chegara qo'shinlarida

E'tibor, e'tirof, MAS'ULIYAT

Sport – jamiyatda sog'lom muhitni targ'ib etuvchi, insonni toblovchi, unga sabr-bardosh hamda chidamlilikni o'rgatuvchi, orzu-maqсадlari sari yetaklovchi muhim vositalardan biri. Mamlakat nufuzini dunyoga tanitib, jahon arenalarida Vatan bayrog'ini yuksaklarga ko'tarishdek sharaflari onlar ham ayni shu soha vakillari, mahoratli sportchilarimizga nasib etmoqda.



Bugun jismoniy tarbiya ijtimoiy omil sifatida tobora yuqori ahamiyat kasb etayotgani bois yurtimizda ushbu sohani yanada rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik masalalardan biri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, Vatan himoyasida sobit turgan irodali harbiylarimiz jismoniy tayyorgarlik va sportni harbiy xizmat bilan chambarchas, uyg'un holda olib borayotgani sababli har ikki sohada salmoqli natijalarga erishmoqda.

Ana shunday matonat sohiblari safida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiylari ham bor. Ularning 2025-yilda erishgan natijalarini sarhisob qilish va yilning eng yaxshi sportchilarini e'tirof etish maqsadida o'tkazilgan tadbirida Chegara qo'shinlari rahbariyati, harbiy sportchilar va ularning yaqinlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Universal jang federatsiyasi mas'ullari ishtirok etdi.

Videomuloqot shaklida o'tkazilgan tadbir davomida so'z olganlar tomonidan 2021-yilda Chegara qo'shinlari harbiy sportchilari 3 ta sport turi bo'yicha

xalqaro va respublika musobaqalarida g'oliblik shohsupasiga ko'tarilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib, bu ko'rsatkich 10 tani tashkil etayotganini va so'nggi 5 yil ichida xalqaro hamda respublika musobaqalarida chegarachi-sportchilar egallagan sovrinli o'rinlar 7 marotaba, oltin medallar soni esa 22 marotaba ortib, xalqaro musobaqalarda 34 ta oltin, 25 ta kumush, 22 ta bronza, respublika musobaqalarida esa 56 ta oltin, 28 ta kumush va 47 ta bronza, jami 212 ta medal qo'lga kiritilgani faxr bilan ta'kidlandi.

Shuningdek, bugungi kunda 37 nafar harbiy sportchi mamlakat terma jamoalari tarkibiga kiritilgan bo'lib, universal jang, qo'ljangi, karate-do, milliy kurash, sambo, dzyudo, tosh ko'tarish, armrestling, shaxmat, yengil atletika, voleybol, stol tennisi, o'q otish sport turlari bo'yicha musobaqalarni ularsiz tasavvur etib bo'lmasligi aytib o'tildi.

2025-yilda DXX Chegara qo'shinlari tarixida ilk marotaba 3 ta sport turi, ya'ni

universal jang, chavgon va jigitovka bo'yicha sarhadlarimiz himoyachilaridan tashkil topgan jamoalar mamlakatimizda "Yilning eng yaxshi jamoasi" deya e'tirof etilgani yig'ilganlar tomonidan olqishlarga sazovor bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Universal jang federatsiyasi Prezidenti Yashnarbek Zokirbekovning ushbu sport turi bo'yicha Chegara qo'shinlari jamoasiga "Yilning eng yaxshi jamoasi" nominatsiyasi bo'yicha esdalik kubogini tantanali tarzda topshirishi yuqorida ta'kidlangan fikrlarning isboti bo'lib, barchaga yuqori kayfiyat ulashdi.

Shundan so'ng o'z yo'nalishlari bo'yicha yuqori natijalarga erishib, eng ilg'or deb topilgan harbiy sportchilar va ularning ota-onalari hamda yaqinlari sahnaga taklif etilib, taqdirlash jarayoni amalga oshirildi.

Kamtarona mehnatlarim yuqori baholanib, sportning karate-do yo'nalishi bo'yicha "Yilning eng yaxshi sportchisi" deya e'tirof etilganimdan juda xursandman. Albatta, bu bizning zimmamizga katta mas'uliyat yuklaydi va kelgusida yanada yuqori

natijalarga erishib, Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarishimizda muhim o'rin tutadi. Fursatdan foydalanib, biz sportchilarga qaratilayotgan bunday yuksak e'tibor uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoniga o'z minnatdorigimni bildiraman, – deydi III darajali serjant Sabohat Xolmatova.

Qo'ljangi sport turi bo'yicha mazkur e'tirofga sazovor bo'lgan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi oddiy askar Zohir Boboqulovning ota-onasi ham farzandi erishgan natijadan nihoyatda mamnun bo'ldilar.


– Zohirjonning buvisi, otasi va akasi bilan birga keldik. Bizni sahnaga chaqirishganida, avvaliga rosa hayajonlandim. Keyin Zohirjonni maqtab sovg'alalar berishdi, bizni juda iliq so'zlar bilan e'tirof etishdi. O'sha paytda yuragimda o'zgacha bir quvonch, faxr hissini tuydim. Demak, o'g'limizga to'g'ri tarbiya bergan ekanmiz, degan xulosaga keldim. Mana, hammaning oldida yuzimizni yorug' qildi. Bunday kunlarni ko'rish har bir ota-onaga nasib etsin, – deydi Mamlakat Aminova.

Darhaqiqat, shu kuni "Yilning eng yaxshi sportchisi" deya e'tirof etilgan 20 nafarga yaqin chegarachi-sportchining ota-onalari va yaqinlari qalbida ana shunday unutilmas tuyg'ular kechgani, shubhasiz.

Tadbirning badiiy qismida Chegara qo'shinlari Ashula va raqs ansambli xonandalari tomonidan namoyish etilgan konsert dasturi barchaga birdek manzur bo'ldi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Keling, kitob o'qiymiz!



“INSON BORKI AZIZDIR”

Biz bolalikdan Hindistonning oshig'i bo'lganmiz. Hind kinematograflari hamkorlikda ishlagan “Uch dengiz osha sayohat” kinosini katta oilamiz, qo'ni-qo'shni, bola-baqralar katta hayajon bilan ko'rganmiz. Eng noyob va intiq kutadiganimiz hind badiiy filmlari edi. Qishloqqa “indiyskiy kino” kelishi hayotga rang beruvchi voqealardan biri edi. Katta ko'chada, bugungi kundan farqli u yoqdan bu yoqqa zir qatnaydigan avtomobillar shovqinisiz, kimningdir devori orqasiga ilingan surpda go'yo mo'jizaga termilgandek, hind kinosiga asir bo'lib tomosha qilar edik.

Bu filmlarning nimasi bizni shunchalar o'ziga rom qildi? Muhabbat ko'p edi! Musiqalar, qo'shiqlar, milliy an'analari, rang-barang sarilar, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasi, adolatning uzoq kuttirmasligi, muhabbatning g'olibligi...

Bugunlar qiziqishlarimiz ham o'zgargan, hind filmlaridagi soddalik yumorga aylandi. Filmlarda hindlar hayotining hamma qirralari ham ochib berilgan emas. Ehtimol, shunday filmlar ham borki, bizga yetib kelmagandir. Bu ulkan davlat haqida Rabindranat Thakur (1861–1941) asarlari ham keng ma'lumot beradi. Thakur katta xalqning yagona yozuvchisi emas, biroq o'zbek adabiy tiliga asarlari eng ko'p chevirilgan ulug' adiblardan biri.

Vaqt bir joyda to'xtab turmaydi. Ilgarilashda davom etyapti. Hindiston ham bir joyda to'xtab qolgani yo'q. Bu ulkan mamlakat kuch-qudratda uncha-muncha davlatlarga bo'y bermaydi. Holbuki uzoq

yillar mustamlaka ostida boyliklari talon-toroj etildi. Farmatsevtika va tibbiyotda anchagina ilgarilab ketgani hech kimga sir emas. Dunyo siyosatida ham o'z o'rni va ovozigaga ega.

Hindistonning bugungi yuksak maqomida uning ozodlik tarixida muhim rol o'ynagan donishmand yetakchi Moxandas Karamchand Gandhi – Mahatma Gandining ham katta hissasi bor. Mahatma – Gandining hurmatli unvoni, buyuk qalb anglamini beradi.

“Keling, kitob o'qiymiz!” sahifasida Mahatma Gandhi (1869 – 1948) bilan qanday bog'liqlik bor? Bugun ana shu insonning tarjimaiy holiga oid bo'lgan “Inson borki azizdir” roman-essesini tavsiya qilamiz. Gandining bu asari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan. O'zbek adabiy tiliga rus tilidan Bahodir Yoqubjonov chevirgan va bu asar “Jahon adabiyoti” jurnali sahifalarida e'lon qilingan. Jurnalda e'lon qilingan bir qator asarlar kitob holida ham chop etilganini eslatib o'tamiz.

Gandi “Inson borki azizdir” roman-essesida yozadi: **“Men haqiqiy tarjimaiy holimni yozmoqchi emasman. Faqat haqiqatni izlash tariximni so'zlab bermoqchiman xolos.**

Mening hayotim – bo'linmaydigan bir butun va men shug'ullanayotgan barcha narsalar biri-biri bilan bog'liq, ular insoniyatga bo'lgan yuksak muhabbatimdan tug'ilgan”.

Rostini aytsam, sizga bu roman-essenini qanday taqdim qilishni bilmadim. Badiiy asarni o'z hissiyotlaring, taassurotlaring bilan bo'lishib o'rtoqlashasan, tavsiya qilasan. Buni...

Inson kamolotida o'sib-ulg'aygan xonadoni, oilaviy muhit asosiy ahamiyatga ega. Har qanday davlat arbobining qanday muhitda tarbiya topgani, bosib o'tgan yo'li kishilarni qiziqtiradi. Ayniqsa, bu yo'llar rostga yo'g'rilgan bo'lsa, xatolar saboqqa aylangan bo'lsa.

Aziz o'quvchi, imkon qadar izohlardan qochib, parchalar keltirishga harakat qilamiz. Bu asarni sizga sevdirim kelyapti. Javoningizdagi xazinalar yana bir qimmatli asar bilan boyishini istayman.

Keling, roman-essedan o'qiymiz: “Otam sulolasiga sadoqatli, haqiqatgo'y, jasoratli, qalbi toza bo'lsa-da, o'ta qiziqqon edi. U o'zining sotilmasligi va adolatlili bilan oilada, begonalar orasida hurmatga sazovor bo'lgan.

Onamni avliyosifat ayol sifatida eslayman. Onam o'ta e'tiqodli bo'lib, ibodat qilmasdan taom haqida, hatto o'ylamasdi ham... U tavba-tazarruli ayol bo'lib, ularni og'ishmasdan so'zsiz bajarardi”.

Agar siz tarjimaiy holingizni sharh qilsangiz, bolaligingizni ro'yi-rost yoza olarmidingiz? Eng mayda-chuyda narsalarni-chi? Kishi o'zini boshqalarga mukammal ko'rsatishni istaydi. Buyuk qalb egasigina boricha ko'rsata oladi.

O'qiymiz: “Juda qo'rqqoq bo'lganim boismi tengdoshlarimdan o'zimni olib qochardim. Do'stlarim kitoblar va darslar edi. Maktabga vaqtida yetib borish va darsdan keyin darhol uyga qaytishni odat qilib oldim. Kim bilandir suhbatlashishga toqat qilolmas, tezda uyga oshiqardim. Ustimdan kulishlaridan cho'chirdim”.

O'n uch yosh... Bu yoshda bolangiz hali bola-da. Hatto bozor-o'charni ham ishonmasangiz kerak. Mahatma Gandhi bu yoshda...

Mahatma Gandhi yozadi: “O'n uch yoshimda meni uylantirishgani haqida sizlarga so'zlab berishni o'zimning og'ir vazifam deb hisoblayman. Hozir mening nazoratimdagi o'n uch yoshli bolalarga qarab nikohimni eslaganimda, o'z-o'zimga rahmim kelib ketadi va bular o'shanday taqdirga duchor bo'lmaganidan xursand bo'laman. O'shanday noma'qul erta nikohlarni oqlash mumkin bo'lgan hech qanday axloqiy sabablarni topa olmayman”.

Bu kitob dastlabki sahifalaridanoq o'ziga bog'lab oldi. Irqchilikning eng og'ir ko'rinishlarini o'qib, “Xayriyat-ey, hozir zamon o'zgargan” degan o'y keladi-yu, ammo bugun ham boshqacha ko'rinishlarda davom etib kelayotganini, tamoman yo'qolib ketmaganini anglab qolasan. Yaqindagina Rossiya Federatsiyasi maktablaridan birida bo'lgan mudhish qotillik va eng achinarlisi ayrimlarning qotil qilmishini qo'llab-quvvatlashi...

Gandi kitobida Braxmachariya qasamini ichganini yozgan. Hayrat. Bu qasam nimani anglatishini bilganimdan so'ng uning yoshini hisobladim. U o'sha paytda o'ttiz besh yoshda bo'lgan ekan. Braxmachariya qasami nima ekanligini yozishdan tiyildim. Shoyad qiziqish ustunlik qilib, mazkur asarni topib o'qisangiz, degan umid bilan.

Mahatma Gandhi buni shunday ifodalaydi: “Biroq ontga amal qilish ko'pdan ko'p shodlik olib kelsa-da, menga osonlikcha berilgan deb o'ylamang. Hatto hozir ellik olti yoshimda ham uning naqadar og'irligini his qilaman. Kundan kunga amin bo'layapmanki, har qanday ontga amal qilish pichoq tig'ida yurishni eslatadi...”

Roman-essedan hindlarning nikoh marosimlari haqida o'qib, hayratga tushdim. Bu yuz yil avvalgi Hindiston emas, bugungi kunimiz-ku, bizning ham hech voz kecha olmaganimiz dabdabali to'ylarimiz-ku, degan o'y kechdi.

Bilasiz, sizga eng yaxshi kitoblarni ilinamiz. “Inson borki azizdir” g'oyat hikmatli kitob. Mahatma Gandini o'qib, farzandlarimizga bolalikdan eng jiddiy kitoblarni o'qitish, o'qib berish zarur ekaniga yana bir bor amin bo'ldim. Bir soatgina vaqtigingizni bolalaringiz bilan kitob o'qishga sarflang. Pushaymon bo'lmaysiz. Dunyoni ma'rifat qutqaradi.

Huzurli mutolaalar tilagi bilan

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”



ISTE'DOD QULOCH YOZMOQDA



Har bir bola iste'dodli, ammo o'sha iste'dodni o'z vaqtida payqash va to'g'ri yo'naltirish uchun ota-onadan katta mas'uliyat talab etiladi. Karimovlar oilasi misolida ayni omillar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti o'quv jarayonini ta'minlash bazasi katta serjanti Muzaffar Karimov turmush o'rtog'i Malohat Ahmedova bilan birga farzandlarining qiziqishiga jiddiy yondashib, ularni yurtimizda yoshlarga yaratilgan imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanishga undaydi. Ayniqsa, otadagi intizom va sportga bo'lgan mehning bolalarga o'tishi uchun, avvalo oila boshlig'ining o'zi namuna bo'ldi.

Xalqimizda "Bo'ladigan bola – boshidan ma'lum" degan purma'no hikmat bor. Bu ibora bugun Chirchiq shahridagi 20-umumta'lim maktabining 7-sinf

Har qanday yutuq zamirida nafaqat mashaqqatli mehnat, balki kuchli ma'naviy tayanch ham yotadi. Shukronaning otasi katta serjant Muzaffar Karimov o'z vaqtida harbiy sohani tanlaganiga ham sportga bo'lgan ishtiyoqi sabab bo'lganini ta'kidlaydi:

– Yoshligimdan sportning yakkakurash turlariga juda qiziqqanman. Shu sababli harbiylik kasbini tanladim. Yoshlik paytlarimiz

iste'dodimizni namoyish etish uchun hozirgidek sharoitlar yo'q edi. Ammo Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus doirasida yaratilgan keng imkoniyatlar yurtimiz yoshlari qatorida farzandlarim iste'dodi yuzaga chiqishida ham ayni muddao bo'ldi. Rafiqam bilan birgalikda qizimizning tanlovini qo'llab-quvvatlab kelmoqdamiz. Kichik farzandim Firdavsjon ham opasiga havas qilib, mashg'ulotlarda ishtirok etyapti. Ajabmas, vaqti kelib Shukronadek

champion bo'lsa. Aslida ota-ona uchun farzandining yaxshi soha vakili bo'lib, jamiyatda o'z o'miga ega bo'lishi va Vataniga kerakli insonligini ko'rishdan ortiq baxt bo'lmasa kerak.

Shukronaning ukasi Firdavs Muzaffarov ham opasining izidan boryapti. 2014-yilda tug'ilgan

o'g'lon Chirchiq shahridagi 20-umumta'lim maktabining 5-sinfida o'qish asnosida qator turnirlar g'olibligiga erishmoqda. Jumladan, 2025-yil may oyida Sirdaryo viloyatida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 3-o'ringa sazovor bo'ldi.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining samarasi ortidan yosh chempion, yorqin iste'dod egalarining yetishib chiqish mumkinligi Shukrona misolida yana bir bor isbotini topdi. Farzandi qiziqishlarini o'z vaqtida anglagan, uning kelajagi uchun poydevor yaratib bergan Muzaffar akaning oilasi esa har bir ota-ona uchun ibratdir.

Ushbu oiladagi sog'lom muhit sabab kichik Firdavsjon ham opasining izidan borib, karate mashg'ulotlarida faol ishtirok etmoqda. Bu esa oiladagi sportga bo'lgan yuksak e'tiborning yorqin namunasidir. Bugun Shukrona Karimova faqat O'zbekiston chempioni bo'lib to'xtab qolmoqchi emas. Uning nigohida jahon va Osiyo arenalarini zabt etish ishtiyoqi yonib turibdi. Zero orqasida tog'dek



o'quvchisi Shukrona Karimova timsolida o'zining amaliy isbotini topmoqda. Atigi olti yil muqaddam karate olamiga qadam qo'ygan bu jajji qizaloq, qisqa vaqt ichida to'qqiz karra O'zbekiston chempioni degan sharaflı nomga sazovor bo'ldi. Xususan, 2024-yil mart oyida poytaxtimiz mezbonligida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 1-o'rin, 2024-yil noyabr oyida Jizzaxda o'tkazilgan O'zbekiston kubogi bahslarida 1-o'rin, 2025-yil 21-noyabr kuni Buxoroda o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida yana faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

2012-yilda tug'ilgan qahramonimiz bundan tashqari bir karra "Tashkent open" xalqaro turniri g'olibi, bir karra yoshlar o'rtasida karate bo'yicha jahon chempioni bo'ldi.



suyanch bo'lib turgan oilasi va Vataniga bo'lgan sadoqati uni yanada yuksak cho'qqilar sari yetaklashi shubhasiz.

Vataniga kerakli farzand bo'lib voyaga yetish – har bir yoshning orzusi, Shukronaning muvaffaqiyatlari esa barcha tengqurlari uchun namunadir.

**Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"**

BAXT SHUKUHI

Subhidam chog'i. Borliq noz uyqudan uyg'onish arafasida. Tong saharda yostiqlardan bosh ko'tarishning o'zi bo'lmaydi. Ayniqsa, dam olish kunlari miriqib uxlaganga nima yetsin. Xizmatdan kech qaytgan Akromjon qizi Hilolaning qo'lchalari bilan yuzini siypalab:

– Dadajon, turiing, tura qooling, – degan yalinchoq so'zlaridan istar-istamas ko'zini ochdi.

– Qizalog'im, namuncha erta turib olmasang? Bugun yakshanba, bog'chaga bormaysan, uxlasang bo'lmaydimi? – Erkalatib, qo'ng'iroq sochlarini silarkan, uning yaqinida harbiycha bosh kiyimni qiyshaytirib kiygancha vaziyatni kuzatib turgan o'g'li Umidga ko'zi tushdi-yu, bu holatning sababini tushunib yetdi.

– Ha shumtaka, singlingni ishga solgan sen ekansan-da, – yolg'ondan po'pisa qildi u. – Men senga necha marotaba aytganman, furajkamni beso'roq kiyimaging deb. Endi jazolamasam bo'lmaydi, shekilli.

Dadasining gapi tugatugamas Umid boshidagini tezlik bilan yechib kelib:

– Dada, dam olish kuni Hilola ikkimizni aylantirgani olib chiqmoqchi edingiz, turmaysizmi? – singlisiga qo'shilib yalina boshladi, u ham.

Shu orada oshxonada nonushta tayyorlayotgan bolalarning onasi ularga tanbeh bera ketdi:

– Sizlarga hozirgina dadangizni bezovta qilmang, xizmatdan kech qaytgan, dam olsin degandim-ku, qachon quloqlaringga gap kiradi o'zi?

– Mayli, qo'yaver, ularni urishma! Va'damning ustidan chiqmagunimcha meni tinch qo'ymaydi, baribir, – onalaridan cho'chib turgan bolalarini bag'riga bosdi Akromjon. – Qani, yuz-qo'llaringni yuvgan bo'lsalaring, nonushta qilib olinglar. Qayerga borishimizni keyin maslahat qilamiz.

Bolalar xursand bo'lib chopqillagancha onalariga ergashdi.

Nonushtadan so'ng ular besabrlik ila dadasiga termildi. Ularning holatini tushunib turgan Akromjon:

– Xo'o'sh, erkatoylarim, – o'g'li bilan qiziga mehr ila boqdi u, – qayerga bormoqchisizlar o'zi?

Uning gapi tugatugamas Umid bilan Hilola:

– Mehribonlik uyiga, – deyishdi jo'r bo'lib.

Dasturxon yig'ishtirib turgan Iroda ularning gapini eshitib taajjublandi:

– Axir ikki haftadan buyon dam olish kunlari o'sha yerga boryapsizlar-ku.

Nima, hayvonot bog'iga borishni istamaysizmi?

– Meni u yerda Laylo kutadi, yana kelaman, birga o'ynaymiz degandim. O'sha yerga bora qolaylik oyi, – ko'zlarini katta-katta ochib yalindi Hilola.

– Meni esa Jasur kutayapti, – singlisining gapini ma'qulladi Umid.

Akromjon ularning gapini eshitib, bir nuqtaga tikilgancha jim qoldi. Iroda ayni damda umr yo'ldoshining ko'nglida nima kechayotganini his qilib turardi. Chunki Akromjon bolalar uyida ulg'aygan.

Yurtga hurlik nasib etganida u o'n yoshda edi. U go'dak bo'lib onasining mehr taftini, qaynoq bag'rini, yoqimli hidini tuymadi, his qilmadi. Bolalar uyida ko'zini ochdi, tarbiyachilar qo'lida ulg'aydi. Ba'zida mehribon, ba'zida qattiqqo'l, turli fe'l-atvorga ega tarbiyachilar. Tiyrak, dono, mittigina bolakay aqli kirib borgani sari onasini qo'msay boshladi. Uning yo'lga ko'z tikishni odat qildi. Tunlari ertaklar aytib berishini, alladan erib, bag'rida uxlab qolishni orzu qildi.

Tarbiyachi opaning, “Kim ona haqidagi she'rni yaxshi yod olsa, onasi kelganda aytib beradi”, degan so'zlariga ishondi. Onaga bag'ishlangan o'nlab she'rlar yodladi. Biroq... biroq u kelmadi. Lekin beg'ubor, cheksiz mehri bilan onajonisini kutishdan charchamadi, qaynoq ko'ksiga bosh qo'yishdan umidini uzmad.

U o'rtoqlariga qo'shilib o'ynashdan ko'ra, bolalar uyining panjara tiriqishlaridan “ozodlik”dagi hayotni, “erkin” bolalarni, ota-onalarining qo'lidan tutib, mamnun qiyofada ketayotgan baxtli o'g'il-qizlarni tomosha qilishni xush ko'rardi. Bu holat unga yoqsada, o'z o'rmiida hali hayotning past-u balandini anglab yetmagan, mehrsizlik, xiyonat, razolat anduhlarini tuymagan, hayot mashaqqatlarida toblanmagan pok qalbiga og'riq berardi. O'sha bolalar o'rmiida bo'lib qolishni juda-juda istar, umid qilardi. Yangi yil bayram tilaklarida esa har gal bitta, ya'ni onasini ko'rishni, uni bu yerlardan olib ketishini iltijo qilardi, u.

Bu yerdagi bolalarning baxtli onlari ko'proq bayramlarga to'g'ri kelardi. Chunki yangi kiyimlar, o'zlari orzu qilgan osh-ovqatlar bilan siylashardi. Akromjon ham yangi libos kiyganda o'ksik diliga quvonch, mahzun chehrasiga tabassum yugurardi. Kiyimlarini bolalarcha g'urur bilan siypalab, shu holatida onasining ko'rishini, chiroyli bo'lib ketgan o'g'lini bag'riga bosishini jaiji yuragi hapriqib istardi.

Akromjon ilk maktabga chiqqanida ham, yaxshi baho olib ustozlardan maqto'v eshitganida ham, gohida bolalar bilan urishib kaltak yeganda, sinfdoshlari tomonidan yetimligi yuziga solinib xo'rlangan, o'ksiganda ham onasini yodga olardi, xayolan unga suyanardi. Ha, biror marotaba yuzini ko'rmagan, mehri to'ymagan onajonisi u uchun yaxshi-yomon kunlarida suyanguvchi, asraguvchi farishta edi, go'yo.

Biroq u o'smirlikka qadam qo'yib,

hayotni anglab borgani sari umidsizlik, tushkunlik uni o'z domiga torta boshladi. Hayotda birorta yo'qlovchisi yo'qligi, yolg'izligi, tashlandiq ekanini his qilishning o'zi yigitchani ma'yus, odamovi qilib qo'ygandi. Chunki bolalar uyidagi o'rtoqlarining deyarli barchasining tashqarida kimidir borligini bilardi. Faqat Akromjonda...

Shunday kunlardan birida bolalar uyida, shuningdek Akromjonning hayotida katta o'zgarish yuz berdi. Istiqlo' nuri sabab Mehribonlik uyi deya nomlangan bu dargoh o'zgacha tus oldi. Akromjonlarning guruhiga tarbiyachi bo'lib kelgan Muazzam opa undagi ruhiy tushkunlikni darhol anglab yetdi. O'z mehri va kuyunchakligi bilan ona sifatida uning qalbiga yo'l topa oldi. Nasihat va o'gitlari ila hayotiga, ruhiy olamiga yorug'lik olib kirdi. Undagi sportga bo'lgan qiziqishni sezgan holda qobiliyatini yuzaga chiqarishga harakat qildi. Muazzam opaning mehr tafti va g'amxo'rligi sabab Akromjonning o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanib bordi. Aqlli, bilimdon, durkun yigit bo'lib voyaga yetdi. Ko'ksidagi harbiy xizmatchi bo'lish ishtiyoqi qat'iy maqsadga aylandi va ofitser bo'lishiga zamin yaratdi.

Atrofidagi yaxshi insonlar, ustozlari, Muazzam opadek onajonisi sabab ko'ngil qo'yg'an yoriga uylandi. Bugun uning sevgan kasbi, aziz oilasi, jonidan ortiq ko'ruvchi farzandlari bor. Shuningdek, bolaligi o'tgan, yaxshi-yomon kunlarida devorlari bilan-da uni suvagan, bolalik orzulari, shirin xayollariga sirdosh tutingan Mehribonlik uyi bor. U bu go'shani, tarbiyachilarni, do'stlarini aslo unutmaydi. Turmush o'rtog'i va farzandlari bilan imkon topildi deguncha, sovg'a-salomlar olib borib turadi. Muazzam opani esa o'z onasidek ko'radi, xabar olishni kanda qilmaydi. Balki, shu sabab bugun to'qqiz yoshni qarshilayotgan o'g'li va besh yoshli qizalog'i Mehribonlik uyidagi tengqurlari qalbiga quvonch bag'ishlashni istar, o'sha go'shaga intilib turar.

Xayolga cho'mgan Akromjon ayolining:

– Dadajonisi, bolalar javobingizni kutishayapti, kiyinaversinmi? – degan savolidan o'ziga keldi.

– Albatta, – horg'in xayollardan bo'shagan yigit bolalariga o'zgacha kulib boqdi. – Qani, tezda kiyinib olinglar-chi! Yaxshisi, bunday qilamiz, hozir hammamiz Mehribonlik

uyiga borib, sizlarni kutib turgan o'rtoqlaringni olib, keyin hayvonot bog'iga boramiz.

Dadasining bu gapi Umid bilan Hilolani quvontirib yubordi. Ular qiyqirgancha kiyinish uchun xonalariga chopqillashdi.

Bolalarini jilmayib kuzatib turgan Akromjon:

– Iroda, hamisha bolalarim ko'p bo'lishini orzu qilganman. Balki, bu o'zim yolg'iz bo'lganim uchundir. Baxtga qarshi, shifokorlar sening farzand ko'rishingni taqiqlab qo'ydi, – dedi o'ychan qiyofada.

– Men ham shu haqda ko'p o'ylayman, – chuqur xo'rsindi Iroda. – O'g'limiz bilan qizimizga

sherik bo'lsa yaxshi edi. Ular katta bo'lgani sari shuni istayapti.

– Sen bunga aslo siqilma, – rafiqasining yelkasidan quchdi Akromjon. – Avvalo, salomatligingni o'yla! Sog'liq bo'lsa, har ishning chorasini bor. O'g'il-qizimizning istagini ham ro'yobga chiqarsak bo'ladi. Ko'pdan buyon sen bilan shu haqda gaplashmoqchi bo'lib yuribman.

– O'ylashimcha, siz aytmoqchi bo'lgan gapni bilaman, – jilmaygan ko'yi umr yo'ldoshiga termildi Iroda.

– Unday bo'lsa, qanday fikr bildirasan? – so'zsiz ham uning qalbidagini uqiy oladigan rafiqasidan javob kutdi, oila boshlig'i.

– Men roziman! Ammo bolalarga hozircha aytmay turganimiz ma'qul. Chunki ularni olib kelmagunimizcha so'rayverib, charchatib yuboradi.

– To'g'ri, hujjat ishlarining o'zi ancha vaqt oladi. Nasib etsa, Yangi yilni to'rt nafar farzandimiz bilan qarshi olamiz.

Er-xotin ezgu maqsadlari bir ekanidan mamnun edi.

Shu kuni ular uchun oilaviy dam olish onlari juda ko'ngilli o'tdi. Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan yetti yoshli Jasur va to'rt yashar Laylo ham ularga hamroh bo'ldi. To'rtala bolakay hayvonot bog'ida, o'yingohlarda bir-birlaridan bir qadam ham ajralmadi. Ularning ovqatlanish paytidagi mehribonliklarini ko'rib Akromjon bilan Iroda to'g'ri yo'l tutayotganini nigohlari orqali ma'qullab qo'yishardi. Ammo kechga tomon bolalarini Mehribonlik uyiga tashlab qaytishlari oson kechmadi. Ularning ko'zidagi ma'yuslik Akromjonga bolalik chog'larini yodga solardi. Jasur bilan Layloning o'tinch ila tikilayotgan beg'ubor ko'zlaridan “Yana qachon kelasizlar?” degan savolni uqib olish qiyin emasdi.

Umid bilan Hilola ham kun bo'yi hordiq chiqarganiga qaramay, uyga ma'yus tortib qaytdi.

– Dada, Jasur bilan Laylo biznikida yashasa bo'lmaydimi? – kechga tomon kitob o'qib o'tirgan dadasidan yalinchoq ohangda so'radi Umid. – Birga o'ynardik, dars qilardik.

– O'g'lim, bu haqda keyinroq gaplashamiz. Hozir uyquga yotish payting bo'ldi. Ertalab maktabga borishing kerak, – kitobdan bosh ko'tarmay javob qaytardi Akromjon.

U shu tobdan o'g'ildan kutayotgan savolni eshitganidan xursand edi. Umidjonning shu haqdagi keyingi savoliga esa “Bu iltimosing javobini senga yangi yil kuni aytaman”, dedi sirli qilib.

Oradan ikki oy o'tdi. Yangi yilga sanoqli kunlar qolgan. Barcha xonadonlarda o'ziga xos tayyorgarlik avjida. Iroda ham bolalarining ko'ngliga qarab, uylarini ular bilan birga ertaknamo qilib bezatdi. Bayram dasturxonini uchun aynan bolajonlar sevadigan shirinlig-u mevalardan ko'proq xarid qilishdi.

O'yinchog'u xilma-xil chiroqlar bilan bezatilgan archaning kamalakrang nuri xonadonni yanada charog'on qildi. Quvonchi ichiga sig'may, Qorboboni kutayotgan Umid bilan Hilola o'zgacha hayajonda, “tiq” etgan tovushga quloq tutishadi. Negaki dadalari Qorbobo ular uchun juda katta va bebaho sovg'a olib kelayotganini aytgandi-da. Shunday hayajonli damlarda eshik qo'ng'irog'i jiringladi, bolalar kutgan Qorbobo kirib keldi. Eng qizig'i, uning oldida kichkinagina qorbobo va qorqiz ham bor edi. Buning siri oshkor bo'lganda esa Umid bilan Hilola xursandligidan o'zlarini qo'yarga joy topolmay qoldi. Akromjon bilan Iroda archa atrofida quyonchalardek sakrayotgan farzandlari to'rtta bo'lganidan baxtiyor edi.



Hay'at yig'ilishi

KELGUSI VAZIFALAR BELGILANDI

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi hay'atining navbatdagi kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Bosh prokuror o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori raisligida o'tgan muloqotda barcha xodimlar, shuningdek Jamoatchilik va faxriylar kengashi vakillari ishtirok etdi.

Unda harbiy prokuratura organlari tomonidan joriy yil o'tgan davrida Konstitutsiya va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar ko'rib chiqildi.

Shuningdek, qo'shnlarda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining ijtimoiy himoyasiga doir nazorat

tadbirlari natijalariga e'tibor qaratildi.

Huquqbuzarliklarning, jumladan korrupsiyaviy holatlarning oldini olish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, energiya tejamkorligi, ekologiya xavfsizligi, byudjet mablag'lari iqtisodi borasidagi va faoliyatga doir boshqa masalalar sarhisob qilindi.

Muhokama yakunida tegishli qaror qabul qilinib, kelgusi vazifalar belgilab olindi.

**Adliya mayori
Farrux SAYSULTANOV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokuraturasi
bo'lim boshlig'i**

Muvofiglashtiruvchi kengash

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralarining muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi o'tkazildi.

QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHGA E'TIBOR

Videokonferens-aloqa tarzida o'tgan muloqotda Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari rahbariyati, harbiy qism komandirlari, muassasa boshliqlari hamda mas'ul ofitserlar ishtirok etdi.

Kun tartibida joriy yilning o'tgan davrida qo'shinlarning qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyati ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan Xavfsizlik kengashining

kengaytirilgan yig'ilishida belgilab berilgan topshiriqlar va vazifalar ijrosi doirasida amalga oshirilgan tadbirlar natijalariga alohida urg'u berildi.

Muhokamalarda, shuningdek harbiy xizmatchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan qator yo'nalishlardagi chora-tadbirlar sarhisob qilindi.

Harbiy xizmatchilar oila a'zolarining salomatligini barqaror saqlash, bandligini va ijtimoiy himoyasini amalda ta'minlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar

va bu borada hamkorlikdagi tadbirlar bo'yicha aniq tavsiyalar bildirildi.

Huquqiy va ekologik madaniyatni yanada yuksaltirish, energiya tejamkorligi va byudjet mablag'larini iqtisod qilish borasidagi ishlar yig'ilganlarning diqqat markazida bo'ldi.

Yakunda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

**Adliya polkovnigi
Shuhrat SANAYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Harbiy prokuraturasi
bo'lim boshlig'i**

Bayram tuhfasi

AVTODROM



FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

O'zbekiston Respublikasi "Vatanparvar" tashkiloti Navoiy viloyati kengashi tasarrufidagi Navoiy o'quv sport-texnika markazining belgilangan standartlarga mos ravishda bunyod etilgan o'quv avtodromi foydalanishga topshirildi.



Tantanali marosimda "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi rahbariyati, markaziy harbiy okrug qo'mondonligi, hokimlik mutasaddilari va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

"Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov o'z nutqida

mazkur voqelik viloyat ahli uchun katta ahamiyatga ega ekanini, negaki tashkilot o'quv muassasasida haydovchilikning barcha toifalari bo'yicha tahsil olayotgan navoiyliklar endilikda ushbu zamonaviy avtodromda amaliy mashg'ulotlarni o'tash imkoniyatiga to'liq ega bo'lganini bildirdi.

So'zga chiqqanlar avtodromning ochilishi yaqinlashib kelayotgan Yangi yil bayrami munosabati bilan viloyat aholisi uchun o'ziga xos sovg'a bo'lganini ta'kidlab, mazkur inshootning qurib-bitkazilishini ta'minlagan "Vatanparvar" tashkiloti mutasaddilariga minnatdorlik bildirdi.

Harbiy orkestr tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar va harbiy xizmatchilarning qo'l jangi ko'rgazmali chiqishlari tadbirga ko'tarinki ruh bag'ishladi.

Tadbir davomida tashkilot tizimida "Avtokross", "Motokross", "Karting", "Duatlon", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Aviamodel",

"Raketamodel", "Kemamodel" bo'yicha tashkil etilgan sport seksiyalarining ko'rgazmalari tashrif buyuruvchilarda katta taassurot qoldirdi.

**O'zbekiston Respublikasi
mudofaasiga
ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti
matbuot xizmati**

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida



O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yoshlarni ijtimoiy foydali, shuningdek ommaviy vatanparvarlik ishlariga keng jalb etish maqsadida joylarda harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib o'tmoqda.

HAMKORLIK ALOQALARI MUHIM O'RINDA



Xususan, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Bog'ot tumani 1-sonli o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi tomonidan "Vatanparvarlik oyli" doirasida o'quvchi-yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirish, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida "Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va ochiq eshiklar kuni o'tkazildi. Bundan tashqari, o'quvchi-yoshlar o'rtasida turli mavzularda ko'rik-tanlovlar hamda sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha sport musobaqalari ham tashkil etildi.

– Ushbu muhim sana munosabati bilan o'tkazilgan uchrashuv, tadbirlar va davra suhbatlarida keng jamoatchilik vakillari, harbiy xizmatchilar hamda faxriylar tomonidan ishtirokchilarga yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini saqlashda, ayniqsa yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining o'rni va ahamiyati tushuntirildi, – deydi mazkur O'STM NTM direktori Dadaxon Bobojonov. – Tuman hokimligi, mudofaa

ishlari, Milliy gvardiya, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan bunday tadbirlarda yoshlarning keksa avlod vakillari bilan uchrashuvlari o'ziga xos an'anaga aylangan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Bog'ot tumani 1-sonli o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasida ommaviy kasb mutaxassislarini

tayyorlash, shuningdek sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, o'tgan yil mobaynida Yunus Sattorov, Tohir Hasanov, Diyorbek Abdullayev, Odamboy Nazarov, Go'zal Jumaboyeva, Quronboy Tojiyev, Ergash Bekturdiyev singari o'qituvchi va amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-ustalar hamda sport murabbiysi Zilola Sobirovaning sa'y-harakatlari bilan yetti yuz nafardan ziyod turli toifali haydovchilar hamda mohir sportchilar tayyorlashga erishildi. Ayni paytda ham tashkilotda "A", "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunga kelib, markaz qoshida faoliyat ko'rsatayotgan "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Karting" kabi seksiya va to'garaklarda qatnashayotgan yoshlarning safi yil sayin kengayib borayotgani quvonarli. Bunda albatta, tashkilotning davlat va jamoat tashkilotlari, harbiy qism hamda muassasalar bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik aloqalari muhim o'rin tutmoqda.

"Vatanparvar" tashkiloti Bog'ot tumanidagi 1-o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi jamoasi barcha yurtdoshlarimizni 2026-yil bilan samimiy tabriklaydi.

Yangi yil barchangizga yaxshi kayfiyat, baxt va omad olib kelsin!

Bayramingiz muborak bo'lsin, aziz vatandoshlar!

Akbar ALLAMURODOV



A portrait of Muboriddin Munkashev, a middle-aged man with short grey hair, wearing a dark blue zip-up jacket. He is sitting with his hands clasped in front of him. The background is a solid yellow color.

tind
ned

AYYOM TABRIGI

E'tibor va g'amxo'rlik

KO'NGILLARGA QUVONCH ULASHIB



Yil yakunlanib, yangi yil nafasi sezila boshlagan pallada qalblarda umid, ko'ngillarda esa bayram shukhi uyg'onadi. Bezatilgan archa, yangragan kuy-qo'shiqlar, bolajonlar kulgisi hayot davomiyligi va ertangi kunga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi. Ana shunday fayzli kunlarda insoniylik, mehr va e'tibor yanada yuksak qadriyatga aylanadi.



Respublika harbiy prokurori o'rinbosari tantanali tarzda taqdim etdi. Ushbu daqiqalarda bolalar yuzida quvonch, ota-onalar ko'zida esa minnatdorlik va ishonch mujassam edi.

Shundan so'ng tadbir bezatilgan ulkan Yangi yil archasi atrofida davom etdi. Ertak qahramonlari ishtirokidagi teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari



bolajonlarni sehrli olamga yetakladi. Harbiy orkestr hamda Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansamblining kuy-qo'shiqlari, jozibali raqslari bayramga fayz va shukuh bag'ishlab, bolalarning kayfiyatini yanada ko'tardi.

Bayram tadbiri doirasida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari Yangi yilni yuqori kayfiyatda kutib olishlari uchun arzonlashtirilgan oziq-ovqat yarmarkalari ham tashkil etildi. Yarmarkalarda go'sht, meva-sabzavot, sut mahsulotlari, shirinliklar hamda kundalik ehtiyoj uchun zarur bo'lgan boshqa oziq-ovqat mahsulotlari arzonlashtirilgan narxlarda taklif etildi. Musiqa sadolari ostida amalga oshirilgan xaridlar nafaqat qulaylik yaratdi, balki bayramning haqiqiy ruhiyatini ham his etishga imkon berdi.

Mazkur bayram tadbiri nafaqat yangi yil shukhi, balki insoniylik, vatanparvarlik va sadoqat qadriyatlarining amaldagi ifodasi bo'ldi.

Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"



MUASSIS
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUDOFAA VAZIRLIGI

VATANPARVAR



Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Timur Narziyev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi:

podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Tohirjon Turg'unboyev
Musahhih: Sayyora Meliq'ziyeva

Buyurtma: V-1

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 32 936 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Muruvvatli-dil press" MChJ.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"Muruvvatli-dil press" MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Chilonzor tumani "Nafosat" MFY Qatortol ko'chasi, 21-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan
tahririyati bilan bog'lanish
uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

www.mudofaa.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz

vatanparvar-bt@umail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya